Hisoblash tizimi deganda foydalanuvchi masalalarini tayyorlash va echish uchun mo'ljallangan birgalikda ishlovchi protsessorlar yoki kompyuterlar, tashqi qurilmalar va dasturiy ta'minotlarning to'plami tushuniladi. Hisoblash tizimi hisoblash vositalarining mavjudligi nuqtai nazaridan bir mashinali, ko'p mashinali va ko'p protsessorli turlarga bo'linadi. Ko'p mashinali hisoblash tizimi - markazlashgan (masalaning echilishi boshqaruvini belgilangan kompyuter bajaradi) yoki markazlashmagan (tizim kompyuterlari teng huquqli) boshqaruvli an'naviy arxitekturadagi kompyuterlar arxitekturasidan tashkil topadi. Bundan tashqari hisoblash tizimi hududiy - to'plangan (barcha kompyuterlar bir-biriga yaqin joylashgan) va hisoblash tarmoqlari (lokal, global) ko'rinishida taqsimlangan bo'lishi mumkin. Hisoblash tizimlarini bunday tashkil qilishda komponentlar bir - biri bilan tezkor aloqa kanallari yordamida bog'lanadi. Ko'p protsessorli hisoblash tizimi - buyruq va ma'lumotlar oqimiga parallel ishlov beruvchi, ya'ni bitta katta masalaning har xil bo'laklarini echuvchi protsessorlar to'plamidan tashkil topadi.

1966 yilda Maykl Flinn tomonidan protsessorlarda ishlov beriluvchi oqim yoki elementlar ketma-ketligi (buyruqlar va ma'lumotlar) tushunchasi bo'lgan EHM va hisoblash tizimlari arxitekturalarining klassifikatsiyalari taklif qilgan. Ma'lumotlar va buyruqlar oqimi soniga asoslangan ushbu klassifikatsiyalar tizimi to'rtta asosiy turga ajratiladi.

SISD – Single Instruction stream/ Single Data stream (Bitta buyruq oqimi va bitta ma'lumotlar oqimi). SISD arxitekturasida tizimlarining barchasi bir protsessorli va bir mashinali variantlarni qamrab oladi. Barcha klassik strukturadagi EHM ushbu turga tegishli bo'ladi. Bu turda hisoblashni parallellashtirish ijrochi qurilmalar o'rtasida mikrobuyruqlar oqimini konveyerlashtirish va parallellashtirish yo'li bilan ta'minlanadi. Bu turga Fon-Neyman arxitekturalari kiradi, ularda faqat bitta ma'lumotlar oqimi bo'lib, buyruqlarga ketma-ket ishlov beriladi va har bir buyruq bitta ma'lumot oqimi bilan bitta amalni bajaradi.

SIMD - Single Instruction stream/ Multiple Data stream (Bitta buyruq oqimi va ko'p ma'lumotlar oqimi). SIMD arxitekturasida vektorli va matritsali ishlov berish strukturalarini yaratish uchun mo'ljallangan. Ushbu arxitektura mashinalar vektor elementlari orqali bitta amalni bir vaqtning o'zida bir nechta ma'lumotlar ustida bajaradi. Bunday turdagi tizimlar odatda bir xil elementlar asosida quriladi, ya'ni tizimga kiruvchi protsessor elementlari bir xil bo'ladi va ularning barchasi bir xil ketma-ketlikdagi buyruqlar bilan boshqariladi. Bunda faqat har bir protsessor o'zining ma'lumotlar oqimiga ishlov beradi. Bunday sxemali masalalarga matritsali yoki vektorli (massivlar) ishlov berish, chiziqli va chiziqli bo'lmagan, algebratik va differentsial tenglamalarni echish, maydon nazariyasi va boshqa ko'plab masalalar kiradi.


MISD – Multiple Instruction stream/ Single Data stream (Ko'p buyruqlar oqimi va bitta ma'lumotlar oqimi). MISD arxitektura o'ziga xos protsessorli konveyerni qurish uchun mo'ljallangan, ya'ni bunda ishlov berish natijalari zanjir tarzda bir protsessoridan boshqa protsessorga uzatiladi. Bunday hisoblashga ixtiyoriy ishlab chiqarish konveyeri misol bo'la oladi. Zamonaviy elektron hisoblash mashinalarida bu qoida parallel ishlovchi tizimda turli xil funktsional bloklar tomonidan amallarni bajarish sxemasiga asoslangan. Bunda har bir qism umumiy tsiklda o'zining vazifasini bajaradi. Bunday turdagi hisoblash tizimlarida konveyerlar protsessorlar guruhini hosil qilishi kerak bo'ladi.

MIMD – Multiple Instruction stream/ Multiple Data stream (Ko'p buyruqlar oqimi va ko'p ma'lumotlar oqimi). MIMD arxitekturasida barcha protsessorlar tizimi xususiy ma'lumotlar oqimi bilan o'zining dasturi bo'yicha ishlashi uchun mo'ljallangan. Oddiy hollarda ular avtonom va mustaqil bo'lishi mumkin, amalda echiladigan masala hamma uchun bitta. Hisoblash tizimlarida bunday sxemadan foydalanish katta ma'lumotlar oqimiga ishlov berish markazlarining o'tkazuvchanlik xususiyatini oshirish uchun ko'pgina hisoblash markazlarida qo'llaniladi. Bu tur bir muncha katta bo'lib, o'z ichiga multiprotsessorli hisoblash tizimlarini ham oladi.

Hisoblash tizimlarida bunday sxemadan foydalanish katta ma'lumotlar oqimiga ishlov berish markazlarining o'tkazuvchanlik xususiyatini oshirish uchun

ko'pgina hisoblash markazlarida qollaniladi (1-rasm). Bu tur bir muncha katta bo'lib, o'z ichiga multiprotsessorli hisoblash tizimlarini ham oladi.

Parallel algoritmlarning tezlanish koeffitsiyenti optimal ketma-ket algoritmnining qanchalik tez ishlashini ko'rsatadi. Ma'lumki optimal tartiblash algoritmi $O(N \log N)$ ta operatsiyani talab qiladi. $O(N)$ murakkablikdagi parallel tartiblash algoritmining tezlanish koeffitsiyenti $O(\log N)$ ni tashkil qiladi.



1-rasm. Flinn klassifikatsiyasi: a — SISD; b - MISD; v — SIMD; g - MIMD.

Parallel algoritmnining qiymati, uni biz ishlatilayotgan protsessorlar sonining algoritm murakkabligiga ko'paytmasi orqali aniqlaymiz. Agar bizning holatda parallel tartiblash algoritmi $O(N)$ ta operatsiya uchun kiruvchi yozuvlar soniga

teng protsessorlarni talab qilsa, uning qiymati $O(N^2)$ ga teng. Bu parallel tartiblash algoritmi qimmatliroq ekanligini bildiradi, ya'ni bitta protsessordagi ketma-ket tartiblash algoritmining qiymati uning murakkabligi bilan mos keladi va $O(N \log N)$ ga teng. Agar bizning parallel tartiblash algoritmimiz uchun yagona imkoniyat protsessorlar sonining kiruvchi yozuvlar soniga tengligi shart bo'lsa, unda bunday algoritm kiruvchi yozuvlar sonining yetarlicha katta bo'lishi bilan befoyda bo'lib qoladi. Ketma-ket tartiblash algoritmda hech qanday o'xshash cheklovlar yo'q. Bizni ko'proq protsessorlar soni kiruvchi ma'lumotlar potensial hajmidan yetarlicha kam bo'lgan va bu son kirish uzunligining ortishi bilan kattalashishni talab qilmaydigan parallel tartiblash algoritmlari qiziqtiradi.

Flinn klassifikatsiyasi.

Ma'lumotlar oqimi	Buyruqlar oqimi	
	Bir oqim	Ko'p oqim
Bir oqim	S1SD - Single Instruction stream/ Single Data stream (Bitta buyruq oqimi va bitta ma'lumotlar oqimi)	M1SD - Multiple Instruction stream/ Single Data stream (Ko'p buyruqlar oqimi va bitta ma'lumotlar oqimi)
Ko'p oqim	SIMD - Single Instruction stream/ Multiple Data stream (Bitta buyruq oqimi va ko'p ma'lumotlar oqimi)	MIMD-Multiple, Instruction stream/ Multiple Data stream (Ko'p buyruqlar oqimi va ko'p ma'lumotlar oqimi)

Flinn klassifikatsiyasining sxemasi keng tarqalgan bo'lib, u yoki bu hisoblash tizimlarini dastlabki baholash uchun keng foydalaniladi. U bir vaqtda asosiy ish qoidasini baholash imkonini ham beradi. Ushbu klassifikatsiyalar bilan bir qatorda boshqalari ham mavjuddir, faqat ular kam qollaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. В.В.Воеводин, Вл.В.Воеводин. Параллельные вычисления. – БХВ, С-Петербург, 2002, 599с..
2. Головкин Б. А. Параллельные вычислительные системы. — М.: Наука, 1980. - 520 с
3. Гергель В.П., Стронгин Р.Г. Основы параллельных вычислений для многопроцессорных вычислительных систем – Н.Новгород, ННГУ, 2003
4. Э. ТАНИЕНБАУМ - “Архитектура компьютера” С-Петербург, 2011, 599с..
5. Мультипроцессорные системы и параллельные вычисления / Под ред. Ф. Г. Энслоу. - М.: Мир, 1976. - 384 с.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ПРОФЕССОР ЎКИТУВЧИЛАРНИНГ АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ШАХСИЙ ИШ РЕЖАЛАРИНИНГ МОНИТОРИНГГИ

Жафаров С.

Ахборотлашган жамиятда ахборот жуда муҳим ресурслардан бирига айланмоқда, ахборот тизимлари эса амалий жиҳатдан барча фаолият соҳаларининг зарурий инструментига айланиб бормоқда. Автоматлаштирилган ахборот тизимлари ёрдамида ечиладиган турли-туман масалалар қурилиши, тузилиши, архитектураси, фаолияти, ахборотларни қайта ишлаш усуллари ва бошқа жиҳатлари нуқтаи назаридан бир-биридан фарқ қиладиган ҳар хил турдаги тизимлар тўпламини, дастурий маҳсулотлар мажмуасини келиб чиқишига сабаб бўлмоқда.

Бугунги кунда кўплаб турли хил тизимлар яратилган бўлиб, улар ўз таркиби ва бош мақсадлари бўйича бир-биридан фарқланади.

Ахборот тизимининг мақсади - муайян профессионал фаолият билан боғлиқ бўлган профессионал ахборот ишлаб чиқариш. Ахборот тизимлари ҳар қандай соҳадаги вазифаларни ҳал қилиш жараёнида зарур бўладиган ахборотни тўплаш, сақлаш, ишлов бериш, чиқариб беришни таъминлайди.

Ахборот тизими - қўйилган мақсадларга эришиш йўлида ахборотни тўплаш, сақлаш, ишлов бериш ва чиқаришда фойдаланиладиган воситалар, усуллар ва ходимларнинг ўзаро боғлиқ мажмуи.

Ҳар бир тизим тўрт асосий қисмдан иборат:

- киритиш;
- ишлов бериш;
- чиқариш;
- тескари алоқа.

Дастурий маҳсулотларни яратилиш жараёни тизимли таҳлил нуқтаи назаридан қуйидагилардан иборат бўлади.

Автоматлаштиришга талаб – техник объектлар учун бундай талабни ифодаловчи, тавсифловчи ҳужжатни техник топшириқ (ТТ) деб аташади. Бу ҳужжат фойдаланувчининг нуқтаи назаридан (ёки дастурий маҳсулот буюртмачиси) автоматлаштиришнинг мақсадларини (ёки яратиладиган дастурий маҳсулотнинг мақсадларини) тавсифлайди².

Мисол тариқасида техник топшириқни тузиш бўйича қуйидаги вариантни келтириш мумкин. Урганч давлат Университети профессор ўқитувчиларнинг шахсий иш режаларининг юритилишини бошқаришнинг автоматлаштирилган ахборот тизими яратилсин, унда қуйидаги имкониятлар мавжуд бўлсин:


- ҳар бир профессор ўқитувчининг маълумотларини олиш;
- талабалар маълумотлар базаси;
- кафедра ўқув юкламалари;

- профессор ўқитувчилари тамонидан бажариладиган ўқув, ўқув- услубий, илмий-тадқиқот, ташкилий-услубий, маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларни хажмини белгилаш бўйича вақт меъёрлари маълумотларини олиш;
- шахсий иш режаларнинг яратилиши;
- шахсий иш режаларнинг юритилишининг мониторинги;
- шахсий иш режаларнинг таҳлили ва бошқалар;

Дастурий маҳсулотнинг функциялари бўйича архитектураси.

Дастурий маҳсулотнинг архитектураси фойдаланувчи нуқтаи назаридан ва худди шундай дастурни ишлаб чиқувчи нуқтаи назаридан дастурий маҳсулотга бўлган талабларни тавсифлашни расмийлаштиради². Техника соҳасида бундай ҳужжатларни техник талаблар деб аташади. Дастурий маҳсулотнинг функционал архитектураси таркибида қуйидагилар бўлиши лозим: дастурий маҳсулотнинг функцияларини тавсифи, фаолият кўрсатадиган муҳитдаги режимларга талаблар. Дастурий маҳсулотнинг функцияларини тавсифини мақсадлар дарахти кўринишида ифодалаш қулай ҳисобланади (1-расм). Мақсадлар дарахтида юқорида айтиб ўтилган техник топшириққа мос келадиган асосий ва таъминловчи функциялар тавсифланган.

Деталлаштирилган ташқи лойиҳалаш. Бу босқичнинг мазмуни дастурий таъминотнинг функцияларини, спецификацияларини ишлаб чиқишдан иборат. Амалий жиҳатдан факт ҳисобланган спецификациялар мос равишда функцияларни тавсифловчи алгоритмлар ҳисобланади, аммо у дастурий таъминотдан фойдаланувчилар учун яратилгандир. Бундай мақсадлар учун жудаям кўп методлар мавжуд, уларни алгоритмларни лойиҳалашнинг қийинлигини ошиб бориши тартибида келтирамиз: матнли тавсифлаш; структуралаштирилган табиий тил; ечимлар жадвали; ечимлар дарахти; визуал тил; блок-схема; дастурнинг алгоритмик тили³. Бу ерда шуни таъкидлаш жоизки, юқорида келтирилган тартибдаги методларда юқоридан пастга қараб алгоритмларни расмийлаштириш даражаси ошиб боради ва дастурчилар, ва лойиҳаловчилар учун деталларни тушуниб етиш осонлашади.



Расм. “Профессор ўқитувчининг шахсий иш режасининг бажарилишининг мониторинги” тизимининг функционал архитектураси.

Фойдаланилган адабиётлар

1. М Арипов, Б Бегалов ва бошқалар Ахборот технологиялари Ношир Тошкент 2009
2. Ғуломов С.С., Алимов Р.Х ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. -Т.: Шарқ нашриёти, 2000 й.
3. Б.Ф.Абдурахимов, М.М.Арипов Введение в СУБД реляционного типа. Язык SQL в системе Oracle - Изд. «Университет», 1998 г.
4. Фаронов В.В. Разработка приложений для баз данных и Интернета - СПб: Питер, 2006 г – 603 С.

FIKRLAYDIGAN MASHINALAR HAQIDA

Xo'jayev O., Xujamov D.

Sun'iy intellekt – bu inson amalga oshira oladigan va aksincha hal qila olmaydigan qiyin muammolarni yechish usullarini o'rganib tahlil qila oladigan fanning bir ilmiy yo'nalishidir. Uning bosh maqsadi ko'plab qiyin masalalarni va amallarni sun'iy qurilmalar va hisoblash sistemasi yordamida hal etishdan iborat.

Hozirgi davr fan-texnikasi taraqqiyotining oliy g'oyalaridan biri bo'lgan “Sun'iy intellekt” yaratish muammosi ko'pdan buyon juda ko'pchilikni qiziqtirib, diqqatini o'ziga tortayotgan, insoniyat va jamiyat hayotini tubdan o'zgartirishi, texnika taraqqiyotida revolyutsiya sodir etishi mumkin bo'lgan muammolardan biridir. Sun'iy intellekt har qadamimizda uchraydi. Hozirda smartfondan tortib avtomobilgacha sun'iy intellekt bilan ta'minlanmoqda. Ko'plab jahonga taniqli kompaniyalar “aqli mashina” yaratish yo'lida izlanishlar olib bormoqda. Ularga misol qilib, Microsoft, Apple, Facebook, IBM, Google kabi kompaniyalarni olish mumkin. So'ngi 35 yil mobaynida fikrlaydigan kompyuterlar yaratish uchun ko'plab urinishlar bo'ldi. Buning natijasida ko'plab muvaffaqiyatlar va yutuqlarga erishildi. Misol tariqasida, Facebook kompaniyasi o'zining ijtimoiy tarmog'ida sun'iy intellekt yordamida ko'z ojiz shaxslar uchun rasmlarni ovoz orqali tasvirlab beruvchi dasturini olish mumkin. Sun'iy intellekt dasturi orqali bu kompaniya kelgusida ijtimoiy tarmoqda buzg'unchi g'oyalar tarqatuvchi, jangari videolarni aniqlab avtomatik tarzda yo'q qiluvchi dastur yaratish. Apple kompaniyasi tomonidan yaratilgan siri sun'iy intellekt dasturi o'z foydalanuvchisini ovoz orqali taniy oladi va shu bilan birga ovoz orqali qabul qilingan buyruqlarni ham bajara oladi, turli savollarga ham javob beradi. Shu o'rinda savol tug'uladi, erishilgan quyidagi yutuqlar bilan kompyuter fikrlay oladi degan hulosaga kelish mumkinmi. Kompyuterlarning hozirgi imkoniyat darajasi yetarli darajada katta, lekin kompyuterlar fikrlash qobiliyati mavjud deb bo'lmaydi. Bu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan mutahhasislar tomonidan kompyuterlar fikrlay oladi va aksincha kompyuter fikr yuritmay, faqat yozilgan algoritmlar bo'yicha ish yuritadi degan ikkita bir biriga zid bo'lgan qarashlar kelib chiqadi. [5]

Amerikalik faylasuf J. R. Sirla o'z maqolasida kompyuter dasturi hech qachon bizdek tushunadigan, fikrlaydigan darajaga erisholmaydi deb takidlab o'tgan. O'z navbatida yana bir amerikalik faylasuf P. S. Cherchlend o'z maqolasida quyidagicha fikrga kelgan, ya'ni miyaning ishlash strukturasiga mos yaratilgan elektron sxemalar orqali suniy intelekt yaratish mumkin. Bu baxs munozara asosida quyidagicha savol yotadi, ya'ni fikrlash o'zi nima? Kompyuterning ishlash prinsipi hozircha fikrlash darajasiga yetib kelgani yo'q, lekin yaqin kelajakda buning ham imkoni mavjud. Bugungi texnologiya asrda ilgari ilojisiz deb hisoblangan bir qator yutuqlarga erishildi. Bunga misol tariqasida so'ngi 30 yil mobaynida mikoprotsessorlarning kattaligi 17 martaga, tranzistorlarning kattaligi 18 ming marotaba kichrayganini keltirish mumkin. Shu yilning mart oyida Microsoft korporatsiyasi tomonidan yaratilgan, suhbatlashish

mobaynida o'rganib boruvchi suniy intellekt bir modeli, Tey ismli 19 yashar qiz twitter mikroblokiga joylashtirilgan, suhbat mobaynida bu dastur odam bilan suhbatdan deyarli farq qilmagan, lekin ko'plab yomon maqsadda foydalanuvchilar tomonidan uning fikrlash salohiyati yovuz maqsadlarga yo'naltirilgan va natijada dasturni to'xtatishga to'g'ri kelgan[9]. Umumiy natija olib qaralganda bu yomon ko'rsatkich emas. Yana bir misol tariqasida Yaponiya milliy universitetida yaratilgan suniy intellekt dasturi Yaponiya universiteti o'qishga kirish imtihonlarini 950 balldan 511 ball to'plab, 80% holatda o'qishga kirishi mumkinligini aniqlab bergan, bunda abiturentlarning o'rtacha ko'rsatkich bali 416 ni tashkil etgan. [10]

Ilm fan taraqqiyotining revolyutsiyasi bu suniy intellektidir. Sun'iy intellekt haqida ilk tushunchalar, haqiqiy bahs-munozaralar elektron hisoblash mashinalari paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Kompyuterlarning intellektga ega bo'lishi mumkinligi haqida jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borgan, zamonaviy informatika asoschilaridan biri bo'lgan Alan Tyuring nomi bilan bog'liq. Tyuring kompyuterlarda intellekt mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun o'z nomi bilan ataluvchi Tyuring testini taklif etadi. Tyuringni fikriga ko'ra, sun'iy intellekt mavjudligini aniqlash uchun ko'plab talablarga hojat yo'q, faqatgina agar uni intellektga ega bo'lmish odamlardan farqlab bo'lmasa. Buning uchun kompyuterga Tyuring testidan muvaffaqiyatli o'tishi talab qilinadi. Bu Tyuring testida inson bilan kompyuter alohida honalarga joylashtirilib, yozma tarzda suhbat olib borishadi. Bunda inson kompyuter bilan suhbat qurayotganini bilmaydi va suhbatdan so'ng shubhalanmay, uni inson degan hulosaga kelsa, kompyuter Tyuring testidan o'tgan hisoblanadi.[4] Alan Tyuring tomonidan 1950-yilda fanga taklif qilingan ushbu test ko'plab baxs munozaralarni keltirib chiqargan. Tanqidchilarning asosiy e'tirozlaridan biri shunda ediki, kompyuter savollarga to'g'ri va aniq javob bergani bilan u intellektga ega degani emas. Tyuringning fikriga ko'ra kompyuterlar qachondir albatta ushbu testdan muvaffaqiyatli o'ta olishadi. U kompyuter 2000-yilda 5 daqiqalik suhbat orqali 30% hakamlarni alday oladi deb hisoblagan, lekin uning fikrlari amalga oshmay qolgan. Hozirga qadar birorta dastur Tyuring testidan o'ta olmagan. Ko'plab dasturlar yaratilib, harakatlar va urinishlar bo'lgan. Misol qilib Eliza dasturini olsak, u bazan odamlarni kompyuter bilan emas, odam bilan suhbatlashayotganligiga ishontira olgan. Har yili bo'lib o'tadigan, odamlardek suhbatlashish imkoniyatiga ega bo'lgan dasturlar o'rtasida bo'lib o'tadigan tanlovda 3 marotaba Lebner sovrini g'olibi bo'lmish A.L.I.C.E dasturi ham Tyuring testidan o'ta olmagan. [3]

Hozirda kompyuterlar yuz yillar mobaynida eng zehni o'tkir matematik olimlar bosh qotirib yecha olmagan muammolarni qisqa vaqt mobaynida yechish orqali intellektning sun'iy turi haqidagi bahslarning yanada avj olishiga sabab bo'lgan. Misol tariqasida 10-chi tartibli loyihaviy tekislikning mavjud emasligini qisqa muddat 50 kunda hal qilib berganini olish mumkin.[7] Yana katta baxs munozaralarga sabab bo'luvchi mashina va inson o'rtasida yuksak intellektual salohiyat talab etuvchi o'yinlarni tashkil etilishi, ya'ni kompyuter va grossmeysterlar o'rtasida bo'lib o'tgan shahmat o'yini olish mumkin. 1996-yili

jahon chempioni Garri Kasparov bilan shaxmat o'yini uchun dasturlangan soniyasiga 100 millionta yurishni tahlil qila oladigan Deep blue superkompyuteri o'rtasida tashkil etilgan o'yinda kompyuter 6 partiyaning 4 tasida Kasparovga mag'lub bo'lgan. Kompyuter dasturi shaxmat o'yinida g'alaba qilgan taqdirda ham, bu kompyuter fikrlay oladi degani emas. Bunda kompyuter tushunmagan holatda juda murakkab bo'lgan matematik algoritmlarni bajarib, mavjud bo'lgan holatlarning barchasini tahlil qilib optimal natija oladi va javob qaytaradi. Yuqoridagilardan xulosa qilsak haqli savol tug'iladi: kompyuter bizning o'rnimizga fikr yurita oladimi? [2]

Fikrlash jarayonini avtomatlashtirish masalasi ham sun'iy intellekt bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi kunda "intellektual" deb nomlanuvchi kompyuterlarning sun'iy intellektining imkoniyati inson kabi fikrlash darajasida emas. Erishilgan natijalar hozircha murakkab, uzoq vaqt talab etuvchi muammolarni matematik teoremlarga asoslangan holatda tahlil qilish, yechish bilan cheklanmoqda. Ilojsiz hisoblangan narsaning o'zi yo'q, faqat bunga vaqt talab etiladi. Yaqin kelajakda fikrlay oladigan kompyuterlarni yaratilish ehtimoli katta va bu amalga oshsa texnika taraqqiyotida tubdan burilish sodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Недосекин Ю.А.** (Россия) Тест для проверки существования мышления у машины или программы.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%81%D0%BA%D1%83%D1%81%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%B5%D0%BD%D0%BD%D1%8B%D0%B9_%D0%B8%D0%BD%D1%82%D0%B5%D0%BB%D0%B%D0%B5%D0%BA%D1%82
3. Алан Тьюринг. Computing Machinery and Intelligence. (*Turing 1950*)
4. <http://www.aiportal.ru/articles/other/turing-test.html>
5. <http://faylasuf.uz/index.php/nazariy/ontologiya/gnosologiya/589-sun-ij-intellekt>
6. <http://newsarmenia.am/news/science/12-proektov-ot-google-microsoft-facebook-i-ibm-kotorye-izmenyat-mir/>
7. http://www.orbita.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=629:suniy-intellekt-fikrlaydigan-mashinalar-ongli-robotlar-haqida&catid=49:bu-qanday-ishlaydi&Itemid=71
8. <http://hi-news.ru/tag/iskusstvennyj-intellekt>
9. <http://logyka.net/iskusstvennyij-intellekt-microsoft-voznemavdel-lyudej>
10. <http://www.popmech.ru/technologies/231841-iskusstvennyy-intellekt-s-uspekhom-sdal-vstupitelnye-ekzameny-v-universitet/>

KRIPTOGRAFIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Xalmuratov O.U, Raxmanqulova M.R.

Ushbu maqolada axborotni maxfiylashtirishning samaradorligi va kriptografiya haqida tushunchalar keltirib o'tilgan, Bundan tshqari shifrlash va kodlashtirish tushunchalari, ularning qay sohalarida ko'proq ishlatilishi, va qay darajada foydaliligi haqida tanishtirilgan.

Эта статья содержит сведения об эффективности криптографических понятий. Шифрование Польфарма и кодирования понятия, используемые в нескольких областях, в которых они представили, и степень полезности.

This article provides an overview of the effectiveness of information confidentiality and encryption. Further, it describes how encryption and coding concepts are used in some areas and how useful they are.

Hozirgi kunda texnikaning tez suratlarda rivojlanib borayotganiga ko'z yumib bo'lmaydi, albatta.

Axborotni uzatilishining esa millionlab usullari mavjud. Shuningdek, axborot uzatilish jarayonida, uning xavfsizliginin ta'minlash juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Umumiy qilib aytganda, axborotni shifrlash(kodlash) jarayoni fanda kriptografiya nomi bilan yuritiladi. Kriptografiya – axborotni muhofaza qilishning ishonchli usuli hisoblanadi. 1997-yili axborot xavfsizligi ilmiy – tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilgan edi. 1999-yili axborot xavfsizligi bo'limiga aylantirildi. Ushbu bo'lim 2001-yildan axborot xavfsizli ilmiy –tadqiqot bo'limi deb atala boshladi.

Demak ,yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, axborotni kriptografik muxofaza qilish – hozirgi zamon jamiyatining eng dolzarb vazifalaridan biridir Shu sababli ham departament axborotni kriptografik muhofaza qilish, tegishli tavsiyani tayyorlash bo'yicha davlat siyosatini shakllantirishda faol ishtrok etmoqda , kriptografiya boyicha dolzarb vazifalarni shakllantirmoqda va ustivor yo'nalishlarni belgilamoqda bu borada nafaqat yurtimizning balki , soxadagi chet el ilmiy uyushmalarning ham ustivor tajribalardan foydalanib kelishyabti va ularning taxlil qilishmoqda.

Shifrlashning istiqbolli tizimi va elektron raqamli imzoni yaratishning algebraik tuzilmaviy asoslarini ishlab chiqishmoqda . Ayniqsa,oldinga qo'yilgan eng dolzab vazifalardan biri nazariy kriptografya va unga yondosh bo'lgan matematika sohalarining fundamental muammolarini ishlab chiqarish hisoblanadi.

Endi esa kriptografiya tushunchasi va axborot xavfsizligi haqida kengroq to'xtalib o'tsak to'xtalib o'tsak.

«**Kriptografiya**» atamasi dastlab «yashirish, yozuvni berkitib qo'ymoq» ma'nosini bildiradi. Birinchi, marta u yozuv paydo bo'lgan davrlardayoq aytib o'tilgan. Hozirgi vaqtda kriptografiya deganda har qanday shakldagi, ya'ni diskda

saqlanadigan sonlar ko‘rinishida yoki hisoblash tarmoqlarida uzatiladigan xabarlar ko‘rinishidagi axborotni yashirish tushuniladi. Kriptografiyani raqamlar bilan kodlanishi mumkin bo‘lgan har qanday axborotga nisbatan qo‘llash mumkin. Maxfiylikni ta‘minlashga qaratilgan kriptografiya kengroq qo‘llanilish doirasiga ega. Aniqroq aytganda, kriptografiyada qo‘llaniladigan usullarning o‘zi axborotni himoyalash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p jarayonlarda ishlatilishi mumkin. Kriptografiya axborotni ruxsatsiz kirishdan himoyalab, uning maxfiyligini ta‘minlaydi. Masalan, to‘lov varaqlarini elektron pochta orqali uzatishda uning o‘zgartirilishi yoki soxta yozuvlarning qo‘shilishi mumkin. Bunday hollarda axborotning ta‘minlash zaruriyati paydo bo‘ladi. Umuman olganda kompyuter tarmog‘iga ruxsatsiz kirishning mutlaqo oldini olish mumkin emas, lekin ularni aniqlash mumkin. Axborotning yaxlitligini tekshirishning bunday jarayoni, ko‘p hollarda, axborotning haqiqiylikni ta‘minlash deyiladi. Kriptografiyada qo‘llaniladigan usullar ko‘p bo‘lmagan o‘zgartirishlar bilan axborotlarning haqiqiylikni ta‘minlashi mumkin.

Nafaqat axborotning kompyuter tarmog‘idan ma‘nosi buzilmasdan kelganligini bilish, balki uning muallifdan keganligiga ishonch hosil qilish juda muhim. Axborotni uzatuvchi shaxslarning haqiqiylikni tasdiqlovchi turli usullar ma‘lum. Eng universal protsedura parollar bilan almashuvdir, lekin bu juda samarali bo‘lmagan protsedura. Chunki parolni qo‘liga kiritgan har qanday shaxs axborotdan foydalanishi mumkin bo‘ladi. Agar ehtiyotkorlik choralariga rioya qilinsa, u holda parollarning samaradorligini oshirish va ularni kriptografik usullar bilan himoyalash mumkin, lekin kriptografiya bundan kuchliroq parolni uzluksiz o‘zgartirish imkonini beradigan protseduralarni ham ta‘minlaydi. Kriptografiya sohasidagi oxirgi yutuqlardan biri – raqamli signatura – maxsus xossa bilan axborotni to‘ldirish yordamida yaxlitlikni ta‘minlovchi usul, bunda axborot uning muallifi bergan ochiq kalit ma‘lum bo‘lgandagina tekshirilishi mumkin. Ushbu usul maxfiy kalit yordamida yaxlitlik tekshiriladigan ma‘lum usullardan ko‘proq afzalliklarga ega. Kriptografiya usullarini qo‘llashning ba‘zi birlarini ko‘rib chiqamiz. Uzatiladigan axborotning ma‘nosini yashirish uchun ikki xil o‘zgartirishlar qo‘llaniladi: kodlashtirish va shifrlash.

Kodlashtirish uchun tez – tez ishlatiladigan iboralar to‘plamini o‘z ichiga oluvchi kitob yoki jadvallardan foydalaniladi. Bu iboralardan har biriga, ko‘p hollarda, raqamlar to‘plami bilan beriladigan ixtiyoriy tanlangan kodli so‘z to‘g‘ri keladi. Axborotni kodlash uchun xuddi shunday kitob yoki jadval talab qilinadi. Kodlashtiruvchi kitob yoki jadval ixtiyoriy kriptografik o‘zgartirishga misol bo‘ladi. Kodlashtirishning axborot texnologiyasiga mos – talablar - qatorli ma‘lumotlarni sonli ma‘lumotlarga aylantirish va aksincha o‘zgartirishlarni bajara bilish. Kodlashtirish kitobini tezkor hamda tashqi xotira qurilmalarida amalga oshirish mumkin, lekin bunday tez va ishonchli kriptografik tizimni muvaffaqiyatli deb bo‘lmaydi. Agar bu kitobdan biror marta ruxsatsiz foydalanilsa, kodlarning yangi kitobini yaratish va uni hamma foydalanuvchilarga tarqatish zaruriyati paydo bo‘ladi.


Kriptografik o'zgartirishning ikkinchi turi **shifrlash** o'z ichiga – boshlang'ich matn belgilarini anglab olish mumkin bo'lmagan shaklga o'zgartirish algoritmlarini qamrab oladi. O'zgartirishlarning bu turi axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalariga mos keladi. Bu erda algoritmni himoyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Kriptografik kalitni qo'llab, shifrlash algoritmining o'zida himoyalashga bo'lgan talablarni kamaytirish mumkin. Endi himoyalash ob'ekti sifatida faqat kalit xizmat qiladi. Agar kalitdan nusxa olingan bo'lsa, uni almashtirish mumkin va bu kodlashtiruvchi kitob yoki jadvalni almashtirishdan engildir. SHuning uchun ham kodlashtirish emas, balki shifrlash axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalarida keng qo'lamda qo'llanilmoqda. Sirli (maxfiy) aloqalar soha **kriptologiya** deb aytiladi. Ushbu so'z yunoncha «**kripto**» - sirli va «**logus**» - habar ma'nosini bildiruvchi so'zlardan iborat. Kriptologiya ikki yo'nalish, ya'ni **kriptografiya** va **kriptotahlil**dan iborat.

Kriptografiyaning vazifasi xabarlarning maxfiyligini va haqiqiylikini ta'minlashdan iborat. **Kriptotahlil**ning vazifasi esa kriptograflar tomonidan ishlab chiqilgan himoya tizimini ochishdan iborat.

Hozirgi kunda **kriptotizim**ni ikki sinfga ajratish mumkin:

- simmetriyali bir kalitlik (maxfiy kalit);
- assimetriyali tizimlarda quyidagi ikkita muammo mavjud:
- Axborot almashuvda ishtirok etuvchilar qanday yo'l bilan maxfiy kalitni bir – birlariga uzatishlari mumkin?
- Jo'natilgan xabarning haqiqiylikini qanday aniqlasa bo'ladi?

Ushbu muammolarning yechimi ochiq kalitli tizimlarda o'z aksini topdi. Ochiq kalitli asimetriyali tizimda ikkita kalit qo'llaniladiyu biridan ikkinchisini hisoblash usullari bilan aniqlab bo'lmaydi. Birinchi kalit axborot jo'natuvchi tomonidan shifrlashda ishlatilsa, ikkinchisi axborotni qabul qiluvchi tomonidan axborotni tiklash qo'llaniladi va u sir saqlanishi lozim.



Ushbu usul bilan axborotning maxfiylikini ta'minlash mumkin. Agar birinchi kalit sirli bo'lsa, u holda uni elektron imzo sifatida qo'llash mumkin va bu

usul bilan axborotni autentifikatsiyalash, ya'ni axborotning yaxlitligini ta'minlash imkoni paydo bo'ladi.

Ta'kidlash joizki kriptografiya uzoq vaqt davomida davlat organlari aloqa tarmoqlarida almashinadigan ma'lumotlar muxofazasining ta'minlanishida foydalanib kelinadi. Kompyuter tarmoqlari va elektron hujjat almashinuvi texnologiyalarining rivojlanishi moliya, bank ishlari, savdo-sotiq kabi soxalarda qo'llanilishi axborot muhofazasining kriptografik usullarini umumjamiyat faoliyatining turli sohalariga keng kirib borishiga sabab bo'ldi. Haqiqatdan ham, aloqa tarmoqlarida axborotni muhofaza qilinishini kriptografik usulda ta'minlash umumjamiyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan uzoq tarixiy manbalarga ega bo'lib, umuminsoniyat jamiyatiga xizmat qilmasligi(ya'ni kriptografik usullarini keng omma tomonidan foydalanilishining cheklanishi) taajjublanarli holat bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Axborot xavfsizligini ta'minlashning kriptografik usullari va ularning qo'llanilishi" Akbarov Davlatali Egitalievich – Toshkent. "O'zbekiston markazi nashriyoti" 2009
2. Google.com

TAHDIDLAR VA DASTURIY TA'MINOT XATOLARINING TAHLILI

Xalmuratov O.U., Xujamov D.J.

Ushbu ishda dasturiy ta'minot xavfsizlikka tahdidlar sabablarini aniqlash haqida so'z yuritilgan. Hayotiy sikllarga asoslanib, dasturiy ta'minotda xatolik keltirib chiqaruvchi va dastur kodidagi tahdidga moyillik tug'diruvchi hususiyatlarni ko'rilgan. Natijada xatoliklar sabablari, tahdidga moyilliklar va hakerlarning dasturiy ta'minotga hujumlari o'rtasidagi bog'liqliklar tuzildi.

Kalit so'zlar: bajarilayotgan kod; manba kodi; zaiflik;

Bugungi kunda katta miqdorda har xil vazifalar va turli sohalarda qo'llanishga mo'ljallangan dasturiy ta'minotlar ishlab chiqarilmoqda. Biroq, dasturiy ta'minot himoya mexanizmlarida ko'pgina kamchiliklar mavjud. Dasturchi dasturiy ta'minotni yaratish mobaynida ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yadi va buning natijasida keyinchalik dasturda havfsizlik nuqtai-nazaridan zaifliklar kuzatiladi. bu zifliklar hakerlar uchun ayni mudao hisoblanadi. hakerlar nafaqat bu turdagi dasturlarning o'zga, balki ular orqali dastur joylashgan kompyuter tizimiga ham hujum uyishtirishi mumkin. Dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat va bu bosqichlarning har birida dasturnina himoya tizimiga alohida e'tibor berish kerak:

1. Tizimni tahlil qilish;
2. Talablar tahlili;

3. Loyihalash;
4. Kodlash;
5. Testlash;
6. Ohiriga yetkazish.

Har bir bosqicha xatoliklar yoki kamchiliklar uchrashi mumkin va ular oqibatida havfsizlik zaiflashib, taxdidlar extimoli oshib ketadi.

Murakkab operatsion tizimlar uchun ilovalar yaratganda, dasturiy ta'minot ishlanmasi vositalaridan foydalanish dasturga buzg'unchi usulda kirish potensial imkoniyatini oshiradi. Bundan tashqari to'liq dasturiy ta'minot yaratishda dasturchilar jamoasidan tashqari dasturga qandaydir yo'llar orqali zarar yetkaza oladigan hakerlar jamoasida ham ish olib borish kerak.

Dasturiy ta'minot ishlab chiqarilishida talablar tahlilining to'liqligi va sifati loyiha muvaffaqiyatining kaliti hisoblanadi. Dasturiy ta'minotga asosiy talablar uning hujjatlashtirilganligi, amal qilishi, sinalganligi, tizimni loyihalash uchun yetarli darajada tuzilgan bo'lishi lozim. bu jarayonlarda yuz beradigan xatoliklar keyingi bosqichlarda dasturiy ta'minot havfsizligini zaiflashtiradi. Dasturiy ta'minotning ishonchliligi va havfsizligiga talablar to'g'ri qo'yilmagan bo'lsa, bu amalga oshirilgan hujumlarga nisbatan zaif bo'lib, agar dastur to'g'ri amalga oshirilmasa yoki butunlay xatolikka uchrasa bu himoyalanmagan sohadan dasturga hujum uyushtirish imkoniyatini yaratib beradi. Bundan tashqari, agar talablar haddan ziyod ko'pligi sabab dasturni to'liq testlash yoki to'liqligini tekshirish imkoniyati bo'lmasa, bu ham dasturiy ta'minot havfsizligi zaiflashib qolishiga sabab bo'ladi.

Loyihalash bosqichida dasturiy ta'minot ichki harakteristikasi va mijozning dasturiy ta'minotga talablari asosida tashqi harakteristikasi aniqlanadi. Arxitektura sistema tomonidan talablarga mos holda bo'lishi, hamda loyiha standarti va uslublariga mos bo'lishi lozim.

Loyihalashning eng muhim bosqichlaridan biri bu masalani yechishning umumiy uslubini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu bo'limda har bir ish puxta ko'rib chiqilishi lozim, chunki bundagi xato juda havfli hisoblanadi. Loyihalash jarayoni va uning natijasi nafaqat berilgan talablarga ko'ra, balki tanlangan jarayon modeli va loyihalovchining tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Eng katta xatolar loyihalash bosqichida uchraydi. Ular juda qiyinchilik bilan topiladi va bartaraf etiladi. Bunday holatda dastur havfsizligi zaifligi va algoritm xatoligi, agar dastur mukammal tarzda amalga oshirgan taqdirda ham, bu xatoliklarni bartaraf qilishga ta'sir qilmaydi. Bunda dasturiy ta'minot ishlash jarayonida xatoliklar ko'zga tashlanishi yoki tashlanmasligi mumkin.

Bunday xatoliklarga misol:

- Uning xavfsizligini amalga oshirishdagi zaifliklarni hisobga olmagan holda TCP/IP protokollaridan foydalanish;
- Dastur ishlash jarayonida ma'lumotlarni shifrlangan holda saqlanmasligi;

Dastulash jarayonida loyihalash jarayoni natijalari dasturiy ta'minot kodi dasturlash tiliga o'giriladi. Shundan keyin, mavjud kod kompilyatsiya jarayonidan keyin bajariladigan kodga aylanadi.

Bu eng muhim bosqichlardan biri hisoblanib, unda barcha xatoliklar va dasturiy ta'minot zaifliklari aniqlanib, to'g'irlanmog'i lozim. Aks holda, hakerlar uni bajarilayotgan kodda aniqlab topib, hujum uyushtirishda qo'llashi mumkin. Dasturiy ta'minotda bajarilayotgan kodni qabul qilish va o'rganish uchun ko'plab mahsus dasturlar mavjud bo'lib, bajarilayotgan kod orqali ko'plab hujumlar amalga oshiriladi.

Testlash jarayonida dasturni sinovdan turli maqsadlarda sinovdan o'tkazish jarayoni yuz beradi:

- Dasturchi va mijozga dastur belgilangan talablarga javob berishi namoyish qilinadi;
- Dastur noto'g'ri amalga oshgan holatni, noxush yoki hujjatsiz foydalanilgan holatlarni aniqlash

Ikkinchi vazifa ham muhim hisoblanadi. Sinovdan noto'g'ri o'tish, xatoliklarni topilmasligi, to'liqligligi, dasturdagi funksiyalarning bog'liqligi o'rtasidagi xatolar va boshqa kamchiliklar dasturiy ta'minotning eng muhim bosqichlarida xatolikni keltirib chiqarib, dasturning havfsizligi zaifligiga sabab bo'lib, keyinchalik dastur ishlab chiqarilgandan so'ng xatolarni topish va o'zgartirish juda qiyinligiga olib keladi. Hakerlar tomonidan osongina dasturga hujum uyushtirib, o'z maqsadi yo'lida foydalanishiga olib keladi.

Dasturiy ta'minotni ohiriga yetkazish bosqichida o'zgartirishlar kiritish amalga oshiriladi. O'zgartirish kiritishga asosiy sabablar:

- Xatoliklarni to'g'irlash;
- Dasturiy ta'minot tashqi muhit o'zgarishiga moslashishi;
- Mijoz talablariga muvofiq dasturiy ta'minotni takomillashtirish

Xatolar sonini minimal qilish asosan loyihalash, kodlash va testlash bosqichlarida talab qilinadi. Dasturiy ta'minot ishlab chiqarilishida ro'y beradigan xatoliklar:

1. Loyihalash.

- Talablarga mantiqan to'g'ri kelmasligi;
- Dastur ta'minoti va dastur o'rtasidagi muammolari;
- Algoritmtdagi xatolik;
- Texnologiya optimal tarzda amalga oshirilmasligi;

2. Kodlash.

- Sintaksis xatoliklar;
- Hisoblash jarayoni noto'g'ri tashkil etilishi;
- Mantiqiy xatoliklar;

3. Testlash.

- Dasturning hujjatsiz foydalanish xususiyatlari sinovlaridan testlar yo'qligi;
- Testdagi xatoliklar;

Hulosa qilib aytish mumkinki, dastur kodini 100% hujumlardan himoyalashning imkoni yo`q. Dastur yaratish bosqichlarida xatoliklar sodir etilib, ularni ko`pchiligini aniqlab bo`lmaydi. Lekin asosiy e`tiborni loyihalash, kodlash va testlash bosqichlariga qaratganda, dasturiy ta`minot havfsizligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Багров Е.В. Мониторинг и аудит информационной безопасности на предприятии//Вестник Волгоградского государственного университета. Инновационная деятельность.2011.№5. С 50-56
2. Мартин, Р. Чистый код: создание, анализ и рефакторинг / Р. Мартин. – СПб.: Питер, 2010. – 464 с.
3. Уильямс Амрит (Williams Amrit). Implement Source Code Security Scanning Tools to Improve Application Security (Использование инструментов сканирования безопасности исходного кода для повышения безопасности приложений).– Компания Gartner, 4 апреля 2006 г.

II ШҶЪБА. ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ МУАММОЛАРИ

КРЕАТИВ ШАМОЛ ГЕНЕРАТОРИ

Саттаров М. А., Атабаев У. М.

Мақолода қайта тикланувчи энергияни ишлаб чиқариш усуллари ҳақида сўз боради, асосан шамол генератори ҳақида. Генераторга бошқача креатив ёндашув келтирилади, яъни генератор кўрилма асосида эмас, балки дизайн элементи асосида келтирилади.

В данной статье разговор идет о производстве возобновляемой энергии, в основном речь идет о ветряном генераторе. Креативном подходе к генератору, то есть генератор приведен не так как устройство, а как на основе элемента дизайна.

In this article we are talking about the production of renewable energy, mainly we are talking about a wind generator. A creative approach to the generator, that is, the generator is not given as a device, but as a design element.

Калит сўзлар: Шамол, генератор, кувват, дарахт, магнит, инвертор, истеъмолчи, сумматор, аккумулятор.

Кириш

Илм фаннинг тарраққиётини калити муаммо десак муболаға бўлмайди, инсоният олдидаги муаммони ечиш учун изланади кашфиётлар қилади. Хўш ҳозирги информатсион технология даврида инсоният олдида фандай муаммолар турибди, муаммолар жуда кўп ҳар соҳани глобал муаммоси мавжуд. шубҳасиз ҳар соҳанинг бошида шу соҳа драйвери бўлиб энергия ётади. Ҳар соҳа ишлаб чиқарадиган маҳсулотда энегия ётади. Демак маҳсулот ишлаб чиқариш учун энергияни маҳсулотга айлантирилади. Шунинг боисида электр энергиясига эҳтиёж ортиб бормоқда. Баъзи бир ривожланиётган мамлакатларини прогрессини энергия танқислиги секинлаштирмоқда, буни Хидистон мисолида кўриш мумкин.

Энди электр энергиясини тежаш масаласида олиб қарайдиган бўлсак, биз қайта тикланувчи энергияга мурожат қилишимиз керак бўлади. Қайта тикланувчи энергия турлари жуда кўп:

- Шамол
- Қуёш
- Сув (денгиз суви тебраниши)

Қуёшли Ўзбекистонимизга кўпинча қуёш энергиясини қайта ишлаш мақсадга мувофиқ, лекин биз шамолни энегиясини электр энергияга айлантиришга бел боғладик.

Масалани қўйилиши

Дарахтларни инсон турмуш тарзидаги ўрнини ўйланиб кўрадиган бўлсак, унинг ўрни бекиёс. Дарахтнинг авфзалликларини санайдиган бўлсак албатта қуйидаги тартибда бўлишини хоҳлар эдим.

- ✓ Карбанат ангидрид газини сўриб, кислород чиқариши.
- ✓ Кўкаламзорлаштиришдаги ўрни.

- ✓ Ланшафт дизайнидаги ўрни.
- ✓ Сўлим соя салқин жойларни ташкиллаштирилиши ва хоказо.

Мени таклиф қилмоқчи бўлган ғоям, дарахтни санаб утирилган ҳамма авфзалликлари билан бирга, ўзида яна бир нечта авфзалликларини мужасамлаштиришдир.

Ғоя қуйидагилардан иборат, аллбатта дарахтимиз сунъий бўлади, эътиборнгизни бир нарсга қаратмоқчиман. Кўз олдингизга келтиринг доимо, кишин ёзин гуллаб турувчи олча, ўрик, шафтоли умуман олганда ҳар қандай гуллаб мева берувчи ёки тирмашиб ўсувчи гулли ўсимлик.

Дид билан истирохат боғига ўрнатилган дарахт ёки тирмашиб ўсувчи гулли ўсимлик, ёнида мўжазгина салқин ичимликлар ёки тез овқатланиш шаҳобчаси. Лекин, нимагадир шу муасасанинг электр таъминоти ер остидан шу дарахтимизга уланган. Бунинг сабаби боғда жойлашган бу сунъий дарахтнинг гуллари оддий гул эмас, балки юқори технологияли шамол генераторидир. Диёримизда баҳор охири ва ёзда майин сокин шабада киш, куз ва баҳор бошида шамолли кунларни инобатга олиб шамол генераторлари билан жихозланган дарахт электр токи генераторини тавсия қилишга аҳд қилдим.

Дархт новдасидаги ҳар бир гул (генератор) олдин шу новдада бирлашади, сўнгра новда шохда, ҳар бир шох гуллари энергияси эса ток кучланиши ва кучига кўра қўйиладиган инверторга қараб паралель ёки кетма кет уланади. Бунинг сабаби инвертор кириш токи неча вольтга мўлжалланганлигидан, дархт генераторига қўйилган талабдан (буюртмачи талаби) икки ёки уч фазали ток, келиб чиқади. Бу талаблар икки ёки уч фазали ток, инвертор чиқишидаги қувват, кучланиш, ток кучи шулар жумласидандир.



Албатта дарахт шамол генератор лойихаси борку деган хулосага келиш мумкин, лекин улар этик ва эстетик жихатда чиройли эмас.


Расмда курсатилган дарахт генератор қуриш жараёни арзон, ремонтга мойиллиги катта бўлса ҳам шаҳар, хиёбон, истирохат боғи ланшафтига сингиб кета олмайди.

Масалани ечими

Энди бизни ғоямизга қайтадиган бўлсак генераторлар кичкина лекин жуда кўп, махсус маҳкам ушловчи коннекторлар билан жихозлаган бўлиб олиб қўйила олинади, бу эса ремонтга мойиллигини оширади. Юқорида айтганимиздек генераторимиз 12В ёки 48В гача бўлиши мумкин. Бу дегани эса новдадаги кучланиш 12 ёки 48 вольтгача бўлади. Шундан келиб чиққан холда бир новдада нечта генератор туриши аниқланилади. Ҳар бир генератор 1.3≈1.5 вольтдан ток генерация қилса 12 вольтлик инвертор учун

ўнта, 48 вольтлик генератор (кўпинча 48 вольтли генератор телекоммуникация қурилмаларида ишлатилинади) учун эса қирқта бўлади. Новдада генераторлар тўпламида ҳамма генераторлар бир маромда нормал ишлаб турганлигини билиш учун стабил филтрдан фойдаланамиз. Бунинг учун нормал ишлаб турган генераторларнинг кучланиши (12 В учун ишчи кучланиш 14В). Агарда генераторлар гуруҳидаги бир генератор ишдан чиқса стабил филтър кириш токи 14 вольтдан камаяди, шу билан шу новдага қўйилган датчик (светодиод) ўчади, бу эса шу новдада бир генератор ишдан чиққанлигидан далолат беради. Керакли ток кучини олиш эса шохдаги йиғувчи ускуна ёрдамида амалга оширилади, яъни новдаларни паралел улаш йўли билан кучланиш ўзгармайди, лекин ток кучи ошади, бу эса ўз навбатида қувватни ошишига олиб келади, қанчалик кўп новда бўлса шунчалик кўп ток кучига эга бўламиз.

Генератор ясалишига келсак, бу ускуна айланувчи ўққа дискга маҳкамланган сим ғалтаклар ва шу дискга паралел айланмай турадиган магнит бўлақларидан иборат. Магнитлар дискга қотирилишидан олдин магнитлар қутбларига эътибор беришимиз керак бўлади. Қутбларни бир томони S бўлса иккинчи томони N бўлиши керак.




Ғалтак ўралганда эса икки хил усулда бир бирига уланиши мумкин, бир фазали ток учун ва уч фазали ток учун.


1. Бир фазали генератор учун ғалтаклар кетма-кет уланишлари керак бўлади.
2. Уч фазали генератор учун эса ҳар фазага бир жуфт ғалтак кетма-кет уланиши керак, масалан бир ғалтак ўзидан учинчи ғалтак билан кетма-кет уланиши керак бўлади. Охирда эса биз уч фаза чиқишини оламиз.



Ғалтакни реал қурилиши



Уч фазали учун




Бир фазали генератор учун
тўғирлагичга



[<http://valerayalovencko.narod.ru/>]

Генератор лопуслари юқрида келтирилган мева гулларига ўхшаш қилиб ишланади. Ўлчамлари билан фарқ қилади, сал каттарок, чунки майин шабага ҳам сезгир


бўлиши керак. Акс холда генератор лопуслар айланмай қолганда электр токи билан таъминланиб турган муосасамиз аккумулятор батареясида таъминлана бошлайди. Бу эса генераторни эффективлик коэффициентини камайтириб юборади.



Энди генераторларнинг бир бирига уланиши ва қандай қилиб 220 вольт кучланиш чиқариб беришини бир мулохаза қиладиган бўлсак, 12 вольтли инвертор учун дарахт структура схемасини келтирамыз. Расмдан кўриниб турибдики бир гуруҳ генераторлар (бир новдадаги, улар сон ўзгармайди) бир бирига кетма-кет уланади, уланиш охирида дарахт шамол генератори ускунасини таъмир талаблилигини билдирувчи датчик (фильтр + светодиода) ўрнатилган. Филтр киришидаги кучланиш камайса филтр светодиода номинал ишлайлиган кучланишни чиқариб бермайди ва светодиода ёнмай қўяди, бу эса генераторлардан бири ишдан чиққанлигидан далолат беради. Новдаларнинг хаммаси шохга паралел равишда уланади, бундай уланиш ток

кучини оширишга хизмат қилади. Қанчалик ток кучимиз юқори бўлса шунча кўп юкланганлиги юқори бўлади. Яъни дарахт генераторимизнинг истеъмолчилари (уланадиган электр ускуналари) кўп бўлади. Ярим иш тайёр десак ҳам бўлаверади. Энди шу элементларни эстетик дид билан дарахт устига генераторларни ва новда ичига шу генераторларни бир бири билан

кетма-кет уловчи шинани жайлаштириш лозим.



Генераторлардан келаётган шиналарни паралел қилиб сумматорга улаш керак ва сумматорни ўзини дархт танаси ичининг юқори қисмига жойлаштирамыз. Уни остига инверторни жойлаштирамыз. Дархт танаси ичининг пастги

кисмига эса аккумулятор батареясини жойлаштирамиз. Аккумулятор батареяси 12 вольтлик бўлиб, шамолсиз пайтда электр токи билан генератор истеъмолчиларини кафолатли ток билан таъминлаб туради. Шамолли пайтларда, яъни генератор ток генерация қилиб турганда эса аккумулятор батареяси қувватланиб туради.

Шундай қилиб дарахитимиз хиёбон бўлсин ёки истирохат боғи бўлсин, қерда ўрнатилишидан қатъий назар турган жойига кўрк бағишлаб қолмай балки хозирги вақтнинг асосий муаммоларидан бири бўлиб саналиб келаётган электр энергияси сарфини камайишига олиб келади. Салқин ичимликлар билан савдо қилидиган ёки бўлмаса электр таъминоти 5 кВт дан ошмайдиган ҳар қандай муосаса ёки бир қаватли уйларга (намунали уй) ўрнатилса қаранг қанча электр энергияси тежаб қолинади. Бунинг провардида генерератор ўрнатилган уй жой, муосаса, кафолатланган узлуксиз электр таъминоти билан таъминланади. Бу давлатимизга қанчалик фойда келтиради. Қайта тикланувчи энергия ишлаб чиқарилиш эрасида шу соҳа ривожига ўз ҳиссамни қўшаёғанимдан мамнунман. Ғоя лойихага айлангандан кейин келтирадиган фойдани, лойихани амалга оширишга кетадиган харажатларни ҳисобласа бўлади, лекин бу ҳисобларни экспертларга ҳоволасига қолдириш мақсадга мувофиқ деб ўйлайман.

АХБОРОТ УЗАТИШ ТАРМОҚЛАРИДАГИ РАҚАМЛИ ҚУРИЛМАЛАРНИ ИЧКИ НАЗОРАТИНИ ТАХЛИЛИ

Т.О. Рахимов, И. И. Омонов.

Ахборот узатишда рақамли тизимларни назорат қилиш ва диагностика қилиш ягона стратегиясини таъминлаш учун икки даражаларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Шунга боғлиқ равишда маълумот узатиш рақамли тизимни назорат қилиш муаммоларини самарали ечимларидан бири сифатида ўрнатилган назорат қилиш принциpidан фойдаланиш тақдим этилади. Шу жумладан ахборотларни узатиш протоколларида ахборотларни тўғрилигини назорат қилиш кўзда тутилган, шу туфайли ахборотларга ишлов бериш ва узатиш жараёнини бузилишини келтириб чиқарадиган исталган техник рад этиш аниқланади.

Таянч сўзлар: *Ахборот узатиш, рақамли тизимлар, диагностика қилиш, оператив назорат, ўрнатилган назорат.*

Кириш

Keyin esa, unda yangi sinf hosil qilinishi kerak bo'ladi. Buning uchun loyihalar daraxtidan **Пакеты исходных файлов** (Source Packages) ustiga sichqonchani o'ng tugmasi bosiladi va hosil bo'lgan kontekst menyudan **Создать** (New) → **Класс Java...** (Java Class...) tanlanadi.



Hosil bo'lgan muloqat oynasida sinf nomi (Class name) **MyApplet** deb kiritiladi va **Готово** (Finish) tugmasi bosiladi. Generatsiya qilingan **MyApplet** sinfi kodiga quyidagicha o'zgartirish qilinadi:

* @author Marks

```

public class SecondApplet extends Applet {
    int curX = 50;
    int curY = 50;
    public boolean mouseDown(Event e, int x, int y) {
        curX = x;
        curY = y;
        repaint();
        return true;
    }

    public void paint(Graphics g) {
        g.drawString("Hello, Applet!!!", curX, curY);
    }
}

```

Netbeansda html-sahifa yaratish

Endi esa yaratilgan appletni ishlatish uchun html-sahifa yaratishni o'rganamiz. Buning uchun Пакеты исходных файлов (Source Packages) → <пакет по умолчанию> (<default package>) ustiga sichqonchani o'ng tugmasini bosib, Создать (New) → Другое... (Other...) tanlanadi.


Hosil bo'lgan quyidagi muloqat oynasida Другое (Other) → Файл HTML (HTML File) tanlanadi va Далее (Next) tugmasi bosiladi. Keyingi oynada fayl nomini index deb nomlaymiz va Готово (Finish) tugmasini bosamiz.

Slayd . html-sahifani testlash

```

<!DOCTYPE html>
<html>
  <head>
    <title></title>
    <meta http-equiv="Content-Type" content="text/html;
charset=UTF-8">
  </head>


```



Appletni sozlash va foydalanish

```
<body>  
< applet code="MyApplet.class" width="250" height="250">  
< param name="t" value="273.15">  
< /applet>  
<div> <h1 style="text-align: center;"> Hush kelibsiz!!! </h1> </div>  
</body>
```

Loyihani kompilyatsiya qilamiz, lekin ishga tushirmimiz
proyekt_nomi/build/classes/ papkasiga o'tamiz
newhtml.html faylini ishga tushiramiz



Hush kelibsiz!!!

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, zamonaviy dasturlash tillarida dasturlashda dasturiy ta'minotni maqsadi, dasturiy ta'minotni loyihalashtirish, dasturiy ta'minotni yaratish tilini tanlash, dasturiy ta'minotdan kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, dasturlash metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, ishlab chiqish, dasturiy ta'minotni yaratish uchun ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir - biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 2013 [Хорстманн] Java 2. Библиотека профессионала, том 1. Основы. 8 издание.pdf.
2. 2008 [Саттер] Стандарты программирования на C++.pdf.
3. 2002 [Секунов Н.Ю.] Самоучитель Visual C++ .NET.pdf.
4. <http://langpop.com>
5. <http://www.tiobe.com>

IV ШЎБА. ТАЪЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР

OLIV TA'LIM MAUSSASALARIDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA VISUAL METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI

Iskandarov S.Q., Hamrayeva S.I.

Zamonamiz jamiyatni axborotlashtirishning yuqori darajasi bilan ham o'ziga xosdir. Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha sohalari qatorida ta'lim jarayoniga ham keng joriy etilib borilmoqda. Oliy ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi yangi innovatsion vositalardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa yangi imkoniyat hamda jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish — bu ta'lim jarayonlarini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sifatining oshishida namoyon bo'ladi, hamda talabalarda ta'lim olishga intilishlarining kuchayishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Сегодня, с высоким уровнем информатизации самого общества. Информационные технологии во всех сферах жизни, в том числе процесса образования также вводятся. Внедрение новых информационных технологий в процессе высшего образования в области использования инновационных инструментов. Это новая возможность и вести процесс. Информация образование и образование является важной частью процесса развития, будет способствовать повышению качества образования и студентов в их образования и развития.

Today, with a high level of informatization of the society itself. Information technologies in all spheres of life, including the education process, are also being introduced. Introduction of new information technologies in the process of higher education in the use of innovative tools. This is a new opportunity and led the process. Information education and education is an important part of the development process, will enhance the quality of education and students in their education and development.

Kalit so'zlar: *Ta'lim, Visual o'rgatuvchi tizimlar, Visual metodlarni, Video*

Ключевое слова: *Образование, Визуальное обучение, Визуальный метод, видео*

Key words: *Education, Visual teaching, Visual method, video.*

Ta'lim – tarbiya bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biridir. Shunday ekan ta'lim sifati muhim omil bo'lib qoladi, ta'lim sifatini oshirishda bir nechta metodlardan foydalaniladi, shu jumladan visual ta'lim metodlaridan ham.

Visual o'rgatuvchi tizimlar asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Visual o'rgatuvchi tizimlar - bu axborot kommunikatsiya vositalarining dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya

effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko'rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, xozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, visual o'rgatuvchi tizimlar asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin. Visual o'rgatuvchi tizimlar vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi.

Visual metodlarni ishlab chiqish uchun quyidagi talablarni bajarishi talab etiladi:

1. Visual o'rgatuvchi tizimlarni tuzilmasi va mazmunini chuqur o'rganishga mo'ljallash bilan bir vaqtda o'rganilayotgan o'quv dasturiga mos kelishi.

2. Visual o'rgatuvchi tizimlarni mazmuni va tarkibi standart talablariga mos kelishi kerak.

3. Visual o'rgatuvchi tizimlarni ko'rgazmaligini ta'minlash talablari va o'rganuvchilar tomonidan o'rganilayotgan obyektlar ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilish va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruriyati talab qiladi.

4. Visual o'rgatuvchi tizimlardan foydalanish tizimliliigi va ketma-ketligi talablari o'rganiladigan fan sohasida bilimlar va ko'nikmalarning ma'lum tizimning ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi ketma-ketligini ta'minlash talab qilinadi

5. Visual o'rgatuvchi tizimlarni o'rgatishning rivojlantiruvchi funksiyalari bajarilishi kerak.

6. O'rgatishda fan, texnika va texnologiyalarni so'nggi yutuqlarini hisobga olinishida o'quv materiali mazmuning yetarlicha chuqurligini, ishonchligini ta'nimlashi kerak.

7. Visual o'rgatuvchi tizimlarning trening vositalari - ta'lim oluvchini kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bog'liq holda tayyorlashni amalga oshirish kerak.

Visual o'rgatuvchi tizimlarning afzalliklari.

Visual o'rgatuvchi tizimlar asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:
- ta'lim olish vaqtining qisqarish imkoniyatiga erishish;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak

bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

- ta'lim olish vaqtining ixtiyoriyligi va moslashuvchanligi

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, visual o'rgatuvchi tizim metodlaridan foydalanish o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Aripov M.M, Imomov T, Irmuhamedov Z.M va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari:-Toshkent: O'zbekiston, 1-qism. 2002y, 2-qism. 2003y, -168b
2. Таненбаум Э. Распределенные системы. Принципы и парадигмы / Э. Таненбаум, М. ван Стеен. – СПб.: Питер, 2003. – 877 с.: ил. – (Серия «Классика computer science»).

“ОЛИЙ МАТЕМАТИКА” ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎЙИН МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Юсупова Ш.Б., Кутлимуратов Д.С.

Техника олий ўқув юртлари талабаларига “Олий математика” фанини ўқитишда ўйин технологиясидан фойдаланишнинг самарали усуллари ҳақида фикр юритилган.

В данной статье рассмотрено теоретические и практические основы методы преподавания предмета «Высшая математика» с помощью игровых технологий.

In this article, the theoretical and practical foundations of methods for teaching the subject "Higher Mathematics" with the help of gaming technologies are considered.

Калит сўзлар: *Ўйинли технологиялар, математик эстафета, интеграл, бўлаклаб интеграллаш.*

Ключевые слова: *Игровые технологии, математический эстафета, интеграл, интегрирования по частям.*

Keywords: *Game technologies, mathematical relay, integral, integration by parts.*

Ўйин жараёнида ўйин иштирокчилари ўзларини камраб турган дунёни янада яхшироқ англай бошлашади. Ўйинли технологиялардан фойдаланишнинг асосини талабаларнинг фаоллаштирувчи ва жадаллаштирувчи фаолияти ташкил этади. Олимлар тадқиқотларига кўра ўйин меҳнат ва ўқиш билан биргаликда фаолиятнинг асосий турларидан бири

ҳисобланади. Психологларнинг таъкидлашича, ўйинли фаолиятнинг психологик механизмлари шахснинг ўзини намоён қилиш, ҳаётда ўз ўрнини барқарор қилиш, ўзини-ўзи бошқариш, ўз имкониятларини амалга оширишнинг фундаментал эҳтиёжларига таянади. Ўйин ижтимоий тажрибаларни ўзлаштириш ва қайта яратишга йўналган вазиятларда, фаолият тури сифатида белгиланади ва унда ўз хулқини бошқариши шаклланади ва такомиллашади.

Ўйин талабаларнинг онгига таъсир қилиб, уларнинг ҳаракатларини бошқариши: саволлар ва уларга жавобларни, янги элементларнинг қўшилишини катта қизиқиш билан қабул қилиши, кутилмаган ҳолатларни пайдо бўлиши, қийинчиликларни ечишдан завқланиш ва қийинчиликларни енгишга ундамоғи лозим. Юқоридагилардан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, ўргатувчи ўйинлар – бу, биз бир вақтнинг ўзида ҳам ўйнаб, ҳам ўрганиб боровчи ўйинларга айтилади.

Ўйин методини тавсифлар эканмиз, педагог қуйидаги ҳолатларни ҳисобга олмоғи лозим:

- 1) педагог жамоалардан қайсидир бирига ён босмаслиги;
- 2) педагог кузатувчи ёки мухлис сифатида қатнашиши;
- 3) педагог бошловчи, эксперт ва маслаҳатчи ролини бажариши керак.

Дарс жараёнини ўйин методи орқали ўтказишда, қуйидаги аниқ, педагогик талабларни ҳисобга олишимиз лозим.

1. Талабаларнинг иложи борица кўпроқ қисмини ўйинга жалб қилиш, барчасини ўз қобилиятларини намоёни қилишга имкон яратиб бериш керак.

2. Тадбир қувноқ ва фаол тарзда ўтиши керак.

3. Ўйинни ўтказишда олдин эришилган мақсадларни такрорламаслик ва мақсад жуда оддий ёки жуда ҳам қийин бўлмаслиги керак. Бундай ҳолатларда қизиқиш сусаяди ва дарсдан кутилган мақсадга эришиб бўлмайди.

4. Ўйин мафтункор, жозибали бўлмоғи лозим. Бу эса ўқув материалининг қизиқарлилиги ва қатнашувчиларнинг билим даражаси ва фаоллигига боғлиқ. Бунда педагог нафақат сўз орқали, балки таъсирли воқеалар, метофоралар, кўргазмали материаллар, мусиқа ва видеоматериаллардан фойдаланиши ўйин ва унинг қатнашувчиларини янада жонлантиради.

5. Ўйинли метод масалаларини тайёрлашдан олдин қатнашувчилар ёши ва психологик қарашларини ҳам эсдан чиқармаслик керак.

Ўйин методини ташкиллаштиришда, ўйин шартлари билан таништириш ўйиннинг муҳим шarti ҳисобланади.

Ўйин савиясини туширмаслик, ҳар қандай тўхталишларсиз, яхши кайфият билан ўйинни олиб бориш керак. Педагог қатнашувчилар гуруҳини рағбатлантириб туриши ёки сўз орқали қўллаб-қувватлаши керак. Масалан: «рахмат», «офарин», «баракалла» ва ҳ.к.

Натижаларни эълон қилиш ёки баҳолашда қуйидаги вариантларни ҳисобга олиш керак.

1. Агар икки ёки ундан ортиқ жамоалар қатнашаётган тематик ўйинлар олиб борилаётган бўлса, шартларни баҳолашда ҳакамларнинг ёрдами керак бўлади.

2. Баҳолашнинг яна бир шакли – бу, фаоллик даражасига қараб турли хил рағбат карточкаларини бериб бориш. Бунда натижавий баҳолашда, карточкалар сонига қараб ғолиб аниқланади.

Педагоглар тажрибасидан маълумки муаммоли-ўйинлар талабани ўзини намоён қилишида жуда катта роль ўйнайди. Қуйида биз “Бўлаклаб интеграллаш” мавзусини “Математик эстафета” методи орқали ўтказиш тартибини келтириб ўтамиз.

“Математик эстафета” шартлари қуйидагича:

1. Талабалар билим савияси ва фаоллигига қараб иккита (гуруҳдаги талабалар сонидан келиб чиқиб иккита ва ундан ортиқ) кичик гуруҳларга ажратилади.

2. Ҳар бир гуруҳ ўзига сардор сайлайди.

3. Ҳар бир гуруҳга ном берилади.

4. Ўқитувчи мавзуга оид қийинлик даражаси бир хил, бир нечта босқичда ечиш мумкин бўлган мисоллар карточкасини гуруҳларга беради.

5. Гуруҳ сардори мисолни доскага ёзади ва биринчи босқичдаги амалларни бажаради. Сўнгра иккинчи талаба чиқиб мисолни ечишни иккинчи босқичини давом эттиради. Кейин учинчи талаба ва ҳ.к.

6. Эстафета ютуғи ўқитувчи ёки ҳакамлар қўлида бўлади. Мисолни тўғри ва тез ечишга эришган гуруҳ сардори келиб ютуқни қўлга киритади ва шу гуруҳ ғолиб ҳисобланади.

Масалан қуйидаги иккита бир хил типдаги мисолни кўриб чиқайлик:

1-гуруҳга.

1-мисол.

$$\begin{aligned} \int x^2 \sin 3x dx &= \left| \begin{array}{l} u = x^2, \quad dv = \sin 3x dx, \\ du = 2x dx, \quad v = \int \sin 3x dx = -\frac{1}{3 \cos 3x} \end{array} \right| = -\frac{x^2}{3} \cos 3x + \int \frac{1}{3} \cos 3x \cdot 2x dx = \\ &= -\frac{x^2}{3} \cos 3x + \frac{2}{3} \int x \cos 3x dx = \left| \begin{array}{l} u = x, \quad dv = \sin 3x dx, \\ du = dx, \quad v = \int \cos 3x dx = -\frac{1}{3} \sin 3x \end{array} \right| = -\frac{x^2}{3} \cos 3x + \frac{2}{3} \left(\frac{x}{3} \sin 3x - \int \frac{1}{3} \sin 3x dx \right) = \\ &= -\frac{x^2}{3} \cos 3x + \frac{2}{9} x \sin 3x + \frac{2}{27} \cos 3x + C \end{aligned}$$

2-гуруҳга.

1-мисол.

$$I = \int e^x \cos x dx = \left| \begin{array}{l} u = e^x, \quad du = e^x dx \\ dv = \cos x dx, \quad v = \sin x \end{array} \right| = e^x \sin x - \int e^x \sin x dx; \quad (1)$$

Энди $\int e^x \sin x dx$ ушбу интегрални ҳисоблаймиз:

$$\int e^x \sin x dx = \left| \begin{array}{l} u = e^x, du = e^x dx \\ dv = \sin x dx, v = -\cos x \end{array} \right| = -e^x \cos x + \int e^x \cos x dx,$$

Бу ифодани (1) тенгликка қўямиз:

$$\int e^x \cos x dx = e^x \sin x + e^x \cos x - \int e^x \cos x dx \Rightarrow$$

$$2 \int e^x \cos x dx = e^x (\sin x + \cos x) + C, \quad \int e^x \cos x dx = \frac{1}{2} e^x (\sin x + \cos x) + C$$

Adabiyotlar

1. Ё.У.Соатов. Олий математика. Олий техника ўқув юртлари талабалари учун дарслик (3-жилд). Тошкент «Ўзбекистон» 1996. 633б.

O'RGATUVCHI VIDEO USULLI DARS YARATISH METODIKASI

Sapayev O', Yusupova Sh .B.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarga dars mashg'ulotlarini olib borishda qo'llaniladigan metodlar va ularni dars jarayonida qo'llash haqida fikr yuritiladi.

В данной статье рассмотрено теоретические основы методы преподавания и их использования во время уроков.

This article is devoted to the theoretical foundations of teaching methods and their use during lessons.

Kalit so'zlar: *Tovush, video, multimedia, CD ROM, CD disk, Active tutor, Power Point, Web kamera.*

Ключевые слова: *Звук, видео, CD ROM, CD диск, Active tutor, Power Point, Web камера.*

Keywords: *Sound, video, CD ROM, CD drive, Active tutor, Power Point, Web camera.*

Tovushlar va video elementlar bilan ishlash mul'timedia vositalari deb ataladigan maxsus texnik va uskunaviy qurilmalar bilan amalga oshiriladi. Bunday texnik vositalar bilan jihozlangan kompyuter - multimedia-kompyuter deb ataladi.

Ma'lumki ma'ruzani, talabalarining 25% ga yaqini o'zlashtiradi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ham ma'ruzani eshitish, ham materialni kompyuter ekranida ko'rish va uni ekranda chiqarishni faol boshqarish o'zlashtirish sifatini oshiradi. Asosiy muammo - professor-o'qtuvchilarning multimedia imkoniyatlarini yaxshi biladigan dasturchilar bilan birgalikda ishlashining tashkil etilmaganligidir. Bunday o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv yurtlarida keng tarqatish lozim. Bu zamonaviy dastur mahsulotlarini yaratishdagi yangi texnologiyadir. Bu professional bo'lmagan foydalanuvchini muloqot menyulari,

chiroyli tasvirlar, sintezlangan tovushlar, musiqa tovushlari, dinamik grafikaning turli effektlari kabi dastur obektlarini dasturlashtirishdek murakkab ishdan ozod qiladi.

Multimediaga mansub texnik vositalarga mos ma'lumotni, masalan, tovush va videoelementlarni, taqlidli, uzluksiz shakldan kompyuter tushunadigan raqamli shaklda o'tkazadi. Shu bilan birga, saqlangan va qayta ishlangan mos ma'lumotni inson adekvat qabul qila olishi uchun mul'timedia qiziqtirayotgan raqamlardan zarur obrazlar, masalan, tovush va videoelementlar yaratadi.

Video bilan to'laqonli ishlash uchun video ma'lumotni kompyuterga mos shaklga va asliga qaytaruvchi moslama video karta zarur. Unga videokamera, videomagnitofon va televizor kabi moslamalar ulanishi mumkin. Ammo, videoshakllarini kompyuterga qayta ishlash bilan odatda tor doiradagi mutaxassislar shig'ullanadi xolis. Aksariat foydalanuvchilar uchun video elementlarni monitorda ifodalay olish etarli bo'ladi. Shunday masalani hal etish uchun har qanday zamonaviy kompyuterda mavjud bo'lgan videoadapter va monitor etarlidir.

Tovushli (audio) va ayniqsa video malumotni kompyuterga saqlash uchun taqqoslanganda nihoyatda kichik sig'implar paydo bo'ladi. Shu bois multimedia sifatiga ega bo'lgan dasturiy maxsulotlar (o'quv qo'llanmalari, spravochnik ensiklapediya hordiq chiqarishga mo'ljallangan turli dasturlar) odatda kompakt disklarda tarqatiladi. Bunday maxsulotlardan foydalana olishimiz uchun CD ROM deb ataladigan jamlovchi zarur bo'ladi. U bo'lmasa kompyuterni muhokama etilayotgan ma'nodagi imkoniyatlari kompyuter o'yinlari bilan chegaraladi.

Tovush va video bilan ishlashni istagan foydalanuvchilar mul'timedia mahsulotlari kompyuter ma'lumotlari uchun mo'ljallangan doimiy xotiraga hamda kompyuterning mikroprossessori, operativ xotirasi va viodiotizimga yuqori talablarni qo'yishni bilishlari lozim. Bunday yuqori sifatlar, ayniqsa, videoma'lumotlar bilan ishlashda zarurdir. Tabiiyki, kelajakda bu yonalishdagi talablar yanada ortadi. Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarning imkoniyatlari keng ekranli videoma'lumotlarni to'laqonli tasvirlash uchun etarli bo'lmagani uchun, bu ma'lumotlarni zichlashtirishga majbur bo'ladilar. Bu amal oddiy ma'lumotlarni zichlashtirishdan farqli o'laroq, mos ma'lumotning to'laqonliligini yo'qotadi. Videomagnitofonlarni zichlashtirish uchun texnik hamda dasturiy vositalar mavjud, audio ma'lumotlarni ham zichlashtirish mumkin, mos hajmlar katta bo'lmagani uchun bu amal uncha dolzarb emas.

Aksariyat foydalanuvchilarni qanoatlantiruvchi minimal ilovalar, tovush va video bilan ishlashga mo'ljallangan bir qator dasturiy vositalar majmuasi bevosita windowsda mavjud. Biz bu ilovalardan foydalanish tarkibi bilan tanishib chiqamiz. Ular tovush va musiqali kompakt disklar, ya'ni CD disklar, tovushli fayllarni tinglashni, yozishni va tahrir qilishni, videokliplarni ko'rishni, turli manbaalardagi signallarni tutashtirishni, ularning balandligi majmuasi va tembrini belgilash imkonini beradi.

1-bosqich. Multimediali dars yaratish uchun dastlab Active tutor (Active tutor Recorder + Active tutor Player) dasturlari, Creative WebCam Center – veb kamerani ishga tushiruvchi(mikrofon bilan birgalikda) dasturlar o'rnatildi.

2-bosqich. Power Point dasturida tarmoqlanuvchi hisoblash jarayonlarini o'rgatuvchi o'quv materiallari, slayd tayyorlandi.

3-bosqich. Power Point dasturida сохранить как... buyrug'i yordamida slaydlar *.jpg formatli rasmlarga o'tkazildi (ayrim xollarda o'tkazish zarur emas).

4-bosqich. Active tutor recorder dasturi yordamida open buyrug'i orqali taqdimot ochiladi(*.jpg formatli rasmlarni xam ochish mumkin).

5-bosqich. Veb kamera ishga tushirilib video fayl taqdimot fayli asosida tayyorlandi. Bu fayl *.wmv kengaytmada saqlandi (*.avi formatda xam saqlash mumkin).

6-bosqich. Active tutor recorder dasturi yordamida open media fayl buyrug'i orqali video fayl (*.wmv) ochiladi(boshqa formatdagi fayllarni xam ochish mumkin).

7-bosqich. View menyusidai event list va video buyruqlari tanlanadi. Xar bir saxifaga mos vaqt belgilab chiqiladi, bunda saxifadagi ma'lumotlat bilan video ma'ruzani tezligi bir xil bo'lishi uchun sozlanadi.

8-bosqich. Yaratilgan fayl *.arf kengaytma orqali saqlanadi

9-bosqich. Active tutor player dasturi orqali multimediali dars ishga tushiriladi.

Ishlab chiqilgan video usuli dars yaratish metodikasidan foydalanib boshqa fanlardan xam multimediali darslar yaratish mumkin.

Active tutor recorder dasturi multimediali darslar yaratish uchun juda qulay va foydalanuvchi uchun asboblari paneli ko'p. Bu dastur yordamida chiroyli virtual darslarni yaratishimiz mumkin. Active tutor recorder dasturi yordamida yaratiladigan multimediali darslar o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi, berilgan axborotlar multimedia tarzda berilganligi uchun o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ В ОБЛАСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО WEB-ДИЗАЙНА

Мухтарова Э., Юсупова Ш.Б.

Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalari talabalarini pedagogik web-dizayn sohasidagi ilmiy-metodik bilim ko'nikma va malakalarini oshirishning nazariy asoslari keltirilgan. Shu bilan birga tadqiqotning dolzarbligi, nazariy ahamiyati, amaliy ahamiyati haqida ham batafsil to'xtalib o'tilgan.

В данной статье рассмотрено научно-методическое обеспечение подготовки студентов вузов в области педагогического web-дизайна. А также, подробно рассмотрена актуальность исследования, теоретическая и практическая значимость исследования.

This article examines the scientific and methodological support for the preparation of university students in the field of pedagogical web-design. And also, the relevance of the study, the theoretical and practical significance of the study, has been examined in detail.

Kalit so'zlar: *Ilmiy-metodik ta'minot, Dizayn, Web-dizayn, Web-sayt, Web-kompetensiya*

Ключевые слова: *Научно-методическое обеспечение, Дизайн, Web-дизайн, Web-сайт, Web-компетенция*

Keywords: *Scientific and methodological support, Design, Web-design, Web-site, Web-competence*

Актуальность исследования. Основными целями закона «Об образовании» является «повышение уровня использования информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) в традиционном обучении, дистанционном обучении, программах повышения квалификации, аттестации и признании квалификации» и «расширение подготовки профессионалов по информационным технологиям и квалифицированных пользователей». В связи с этим основными ориентирами модернизации системы образования в Узбекистане становятся возрастающие требования общества к уровню готовности выпускников учебных заведений творчески решать средствами ИКТ задачи, возникающие в процессе профессиональной деятельности, в том числе задачи по созданию web-сайтов, связанных между собой в единую глобальную сеть.

Вследствие стремительного роста сети WWW (World Wide Web – Всемирная паутина) появилась новая область информационных технологий – web-дизайн, один из перспективных видов деятельности, дающий новые возможности для воплощения творческих идей художников, дизайнеров и специалистов в области информационных технологий. В результате обучение web-дизайну является в настоящее время важнейшим компонентом образования.

Исходя из вышесказанного, актуальность исследования на социально-педагогическом уровне обусловлена наличием социального заказа общества на выпускников вуза, компетентных в области педагогического web-дизайна. Необходимым атрибутом современного конкурентоспособного предприятия является наличие web-сайта, поддержку которого должен осуществлять профессионал, обладающий широким спектром знаний в области IT-технологий, дизайна, методов продвижения интернет-ресурса. На рынке труда возникают новые специальности: web-мастер, HTML-верстальщик, администратор сайта, SEO-специалист, информационный архитектор и другие, соответственно, необходимы новые педагогические и методические идеи по реализации подготовки студентов вуза в области педагогического web-дизайна.

На научно-теоретическом уровне актуальность исследования обусловлена недостаточностью разработки научно-методологических

подходов к подготовке студентов вуза в области педагогического web-дизайна. Особое значение эта проблема приобретает в связи с формированием информационного общества в Узбекистане и широким распространением web-технологий в образовании и экономике страны.

На научно-методическом уровне актуальность исследования определяется необходимостью выявления комплекса педагогических условий, которые способствуют эффективному формированию web-компетенции студентов вузов и разработки научно-методического обеспечения дисциплины «Педагогические программные средство и педагогический Web-дизайн», которое включает в себя учебно-методический комплекс (УМК) данной дисциплины для студентов форм обучения по профильным специальностям.

Ключевые понятия исследования:

Научно-методическое обеспечение – обеспечение, включающее структуру и содержание дисциплины, планирование и создание комплекса учебно-методической документации, дидактических методов и средств обучения, необходимых для качественного обучения студентов в рамках содержания, определяемого ГОСами, соответствующей образовательной программой, а также современными достижениями в данной области.

Дизайн – проектная деятельность, основанная на объединении в проектном образе научных принципов с художественными, создающая эффект, недостижимый в обычном проектировании (Е.В. Ткаченко, С.М. Кожуховская).

Web-дизайн – проектная деятельность по созданию средствами web-технологий информационной архитектуры web-сайта с одновременным его художественным оформлением и оптимизацией программного кода в целях наиболее эффективного использования и продвижения в Интернет [2].

Web-site (сокращенно сайт) – совокупность электронных документов частного лица или организации, расположенная в сети Интернет и объединенная под одним доменным именем или IP-адресом. Все web-сайты в совокупности составляют сеть WWW [1].

Web-компетенция – компетенция, характеризующая способность и готовность к самостоятельному проектированию и реализации основных компонентов web-дизайна [1].

Одним из инновационных направлений современного профессионального образования является дизайн-образование. Основные положения концепции дизайн-образования изложены в трудах В.П. Климова, С.М. Кожуховской, Е.В. Ткаченко и др.

В ряде исследований подготовка специалиста в области web-дизайна рассматривается с позиций формирования соответствующих дизайнерских и технологических компетенций (Г.П. Блуднов, В.А. Филиппов и др.).

Анализ состояния исследуемой проблемы в педагогической теории и практике обучения показал, что недостаточно полно разработаны вопросы научно-методического обеспечения подготовки студентов вузов при

обучении педагогического web-дизайну. Отсюда возникает ряд противоречий:

- на социально-педагогическом уровне – между объективной потребностью общества и государства в выпускниках вузов, обладающих web-компетенцией, и недостаточной разработанностью данного вопроса при подготовке студентов в области педагогического web-дизайна;

- на научно-теоретическом уровне – между существующими подходами к организации процесса обучения студентов педагогического web-дизайну и необходимостью уточнения научно-методологических подходов, направленных на формирование web-компетенции;

- на научно-методическом уровне – между необходимостью создания научно-методического обеспечения, позволяющего организовать процесс обучения web-дизайну, и недостаточной разработанностью учебных пособий и методических рекомендаций для студентов в этой области.

На основе анализа актуальности, выявленных противоречий сформулирована проблема исследования, заключающаяся в обосновании модели научно-методического обеспечения подготовки студентов вузов в области педагогического web-дизайна, реализация которой направлена на формирование у студентов web-компетенции.

Теоретическая значимость исследования состоит в следующем:

1. Уточнено содержание понятия «Педагогического Web-дизайн», в его структуре выделены следующие блоки: 1) информационная архитектура web-сайта; 2) художественное оформление web-сайта; 3) технологии создания web-сайта; 4) юзабилити web-сайта (от англ. usability – удобство и простота использования); 5) SEO-оптимизация web-сайта (SEO – search engine optimization – поисковая оптимизация). Традиционно в педагогической теории и практике под web-дизайном понимается создание логической структуры web-сайта и его реализация средствами web-технологий.

2. Раскрыто содержание понятия «web-компетенция», выделены ее компоненты: структурно-функциональный – способность и готовность к проектированию информационной архитектуры web-сайта (статической и динамической моделей, логической и физической структуры); художественный – способность и готовность к проектированию дизайна web-сайта средствами компьютерной графики с использованием приемов композиции и колористики; технологический – способность и готовность к реализации web-сайта с использованием статических и динамических технологий, разработки юзабилити web-сайта, реализации SEO-оптимизации web-сайта.

3. Обоснован комплекс педагогических условий внедрения модели научно-методического обеспечения подготовки студентов вузов в области web-дизайна.

Практическая значимость исследования заключается в том, что его выводы и рекомендации направлены на совершенствование процесса обучения web-дизайну студентов вузов.

Литература

2. Власова, Н.С. Проектный подход при обучении студентов вуза web-дизайну в контексте дизайн-образования [Текст] / Н.С. Власова // Проф. образование. Столица: прил. к журн. – 2010. – № 7. – С. 21–26.

3. А.Ю. Уваров. Педагогический дизайн. Еженедельная газета Издательского дома «Первое сентября». №30. (415) 8-15 августа 2003.

OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARGA WEB-DIZAYN ASOSLARINI O'RGATISH

Yusupova Sh .B.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarga web-dizayn asoslarini o'rgatishdagi nazariy ma'lumotlar va web-dasturlash, web-dizayn asoslarini o'rganishni boshlagan talabalar uchun maxsus dasturlar haqida so'z yuritiladi.

В данной статье рассмотрено теоретические основы преподавании web-дизайна. А также про программы, созданное специально для изучения основы web-дизайна и web-программирования.

In this article, theoretical foundations of teaching web-design are considered. And also about the program, created specifically for studying the basics of web-design and web-programming.

Kalit so'zlar: *Pedagogik dizayn, instructional design, tahlil, loyihalash, ishlab chiqish, qo'llash, baholash, Ease Editing, HTML5, CSS*

Ключевые слова: *Педагогический дизайн, instructional design, анализ, проектирование, разработка, применение, оценка, Ease Editing, HTML5, CSS*

Keywords: *Pedagogical design, instructional design, analysis, design, development, application, evaluation, Ease Editing, HTML5, CSS*

Butunjahon ta'lim sohasidagi yuksalishlarni, deyarli, barcha ilm va fan sohalaridagi amaliy elektron o'quv qo'llanmalarining paydo bo'lishi bilan bog'lash mumkin. Bu esa o'z navbatida hozirgi kun pedagogining professional kasbiy muammolari yechimini veb-ilovalar ko'rinishda hal qilishga olib keldi. Hozirgi kun zamonaviy pedagogi kompetentligining asosiy mazmuni sundaki – u o'qitishning elektron vositalarini vizual tahrirlashdan foydalangan holda yaratish imkonidga ega (dasturlash asoslarisiz).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida» 2002 yil 30 maydagi PF-3080-son farmonida “Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya

vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ulardan foydalanish, fuqarolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'liqroq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirish hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish" ning maqsad va vazifalari aniq bayon qilingan.

Yuqoridagilarga qo'shimcha holda shuni ta'kidlash lozimki, o'quv jarayonini "kompyuterlashtirish" deganda, so'z faqat elektron darsliklar yoki elektron o'quv-metodik majmualar haqidagina emas, butun "o'quv muhitini" amaliy jihatdan qaytadan tartibga solishni amalga oshirishni nazarda tutadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jadal rivojlanish bugungi kunda o'quv jarayonini ochiq o'quv arxitekturasi asosida qurishni talab qilmoqda. Chet davlatlarida keng qo'llanib kelinayotgan "pedagogik dizayn" ("Instructional design", yoki ID) termini bizning mamlakatimizda ham muomalaga kirib kelmoqda.

Ko'pgina ekspert olimlarning tasdiqlashicha, o'qitishning elektron vositalarining pedagogik web-dizayni, innovatsion o'quv materialining sifatiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Pedagogik dizayn (A. Yu. Uvarov ta'rifiga ko'ra) bu – o'quv jarayonida bilimlarni samarali qo'llashning loyihalash, ishlab chiqish, baholash va o'quv materiallarini o'qitish va ta'lim beishning tizimli ketma-ketligi demakdir [1].

Pedagogik dizayn o'quv materiallarini loyihalash jarayoni sifatida bu – bir qator tartibli jarayonlarning aniq ketma-ketligidan iborat taomil hisoblanadi. O'quv materiallarini yaratishning asosiy sikli, beshta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi.

1. Tahlil – o'qitishni olib borishning qanchalik zarurligi (talablar tahlili), o'qitishning talab qilinadigan maqsadlari (maqsadlar tahlili), kelajak o'quv ishlarining vosita va shartlari. (shartlar tahlili).


2. Loyihalash – rejalashtirish, timsollarni ishlab chiqish, asosiy qarorlarni tanlash, ssenariylarni tuzish.

3. Ishlab chiqish – rejalarini, ssenariylarni, timsollarni o'quv materiallari to'plamiga almashtirish.

4. Qo'llash – o'quv materiallarini o'quv jarayonida qo'llash.

5. Baholash – o'quv ishlarining natijalari baholanadi.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarga Web dasturlash va Web-dizayn asoslarni o'rgatishda maxsus dasturiy maxsulotlarga ehtiyoj paydo bo'ldi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Web dasturlashni o'rganishni boshlagan foydalanuvchilar uchun oson muharrir - "Ease Editing" dasturi yaratildi.



1-rasm. "Ease Editing" (EE) dasturining umumiy ko`rinishi

"Ease Editing" (EE) dasturi — web dasturlashda keng qo'llaniladigan HTML5 razmetkali tili, CSS kaskad stillari hamda JS skriptlarni qo'llab web-sahifalar yaratishni o'rgatish uchun qulay dasturiy vosita hisoblanadi.

Dastur interfeysi faqat o'zbek tilida va foydalanish uchun qulaydir. Dastur Windows operatsion tizimida ishlatish uchun mo'ljallangan.

Dastur quyidagi vazifalarni bajarishga mo'ljallangan: HTML razmetkali tilida ishlash ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, HTML tili teg va atributlarni klaviaturadan kiritishni osonlashtirish va natijalarni parallel ko'rinishda joylashgan oynada ko'rib borish.

Qo'llanilish sohasi: Ta'lim sohasi

Dasturning funksional imkoniyatlari:

- HTML5 razmetkali tilining teg va atributlarini tez va oson ya'ni teg va atributlarni klaviatura tugmalarida terib o'tirmasdan menyular qatori yoki uskunalar panelidan tanlash imkoniyati;
- Dastur natijalarini GoogleChrome, Safari, Explorer, Opera, Mozilla FireFox kabi brauzerlarda yoki dastur o'zida ishlatib ko'rib borish imkoniyati;
- CSS kaskad stillari va JS skriptlarni qo'shish imkoniyati mavjud.

EHM turi: Pentium III va undan yuqori.

Dasturlash tili: C#

Operatsiya tizimi(kompyuterlar uchun): Windows XP va undan yuqori.

Dastur hajmi: Dasturiy ta'minot hajmi kompyuterlar uchun 626 kb ni tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. А.Ю. Уваров. Педагогический дизайн. Еженедельная газета Издательского дома «Первое сентября». №30. (415) 8-15 августа 2003.

ЧИЗИҚЛИ АЛГЕБРАИК ТЕНГЛАМАЛАРНИ ЕЧИШДА EXCEL ДАСТУРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДИКАСИ

Юсупова Ш.Б., Кутлимуратов Д.С.

Техника олий ўқув юртлари талабаларига “Олий математика ва эҳтимоллар назарияси” фанини ўқитишда Excel дастурини қўллаш методикаси амалий равишда кўрсатиб берилган.

В данной статье рассмотрено теоретические и практические основы методы преподавания предмета «Высшая математика и теория вероятности» с помощью программы Excel.

In this article, the theoretical and practical foundations of methods for teaching the subject "Higher Mathematics and Probability Theory" are examined using Excel.

Калим сўзлар: Чизиқли алгебраик тенгламалар системаси, Microsoft Excel, MathCad, Гаусс, Крамер, матрицавий усул.

Ключевые слова: Система линейных алгебраических уравнений, Microsoft Excel, MathCad, Гаусс, Крамер, матричный метод.

Keywords: System of Linear Algebraic Equations, Microsoft Excel, MathCad, Gauss, Kramer, Matrix Method.

Олий математиканинг чизиқли алгебра бўлимида, талабалар матрицалар, детерминантлар, чизиқли тенгламалар системаси ва бошқа мавзуларни ўрганадилар. Бу бўлимдан олинган билимлар ОЎЮда олинадиган бошқа билимларни ўзлаштиришда амалий қийматга эга.

Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечиш мавзусини ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланиш, қаралаётган ишнинг асосий мақсади ҳисобланади.

Бунинг учун қуйидаги масалаларни ҳал қилиш керак:

1. Чизиқли алгебра мавзуси бўйича турли хил илмий-техник адабиётларни ўрганиш ва уларни таққослаб кўриш.

2. Маъруза дарсида чизиқли алгебраик тенгламалар системаси мавзусини ўтиш.

3. Амалий машғулотларда талабалар чизиқли алгебраик тенгламалар системасини аналитик усул орқали, Microsoft Excel ва MathCad дастури ёрдамида ечиш усуллари ўзлаштиради. Ҳар қандай ҳолатда ҳам, талабаларга дарсда чизиқли алгебраик тенгламалар системасини Гаусс усули, матрица усули ҳамда Крамер усули орқали ечишни ўргатиш.

4. Чизиқли алгебраик тенгламалар системаси мавзуси юзасидан олинган назарий ва амалий билимлар назоратини ташкил қилиш.

Маъруза машғулотида талабалар чизиқли алгебраик тенгламалар системасининг асосий тушунчалари, биргаликда ва биргаликда бўлмаган тенгламалар системаси, чизиқли бир жинсли тенгламалар ситемаси, чизиқли

тенгламалар системасини ечишни Гаусс, Крамер ва матрица усуллари билан танишадилар.

Амалиёт машғулотларида биринчи босқич бу - ўтилган мавзунини такрорлаш ҳисобланади. Иккинчи босқичда эса чизиқли алгебраик тенгламалар системасини аналитик Гаусс усули, матрица усули ҳамда Крамер методи орқали ечиш қаралади.

Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини Гаусс усули орқали ечиш алгоритми:

1. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини текшириш. Бунинг учун чизиқли тенгламалар системаси коэффицентларидан тузилган A -асосий, ҳамда $\bar{A}$ -кенгайтирилган матрицаларни тузиш, элементар алмаштиришлар ёрдамида A ва $\bar{A}$ матрицаларнинг r рангини аниқлаш керак. Тенгламалар системаси биргаликда ёки биргаликда эмаслигини, нечта ечими борлигини аниқлаш.

2. Чизиқли алгебраик тенгламалар системаси ечимини топиш.

3. Текширув. Тенгламалар системасининг ҳар бир тенгламасига топилган қийматлар қўйилса, тўғри тенглик яъни айният ҳосил бўлиши керак.

4. Жавоб.

Мисол. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини Гаусс методи

орқали ечинг:

$$\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 5x_3 = -9 \\ 2x_1 - 2x_2 + 6x_3 = 4 \\ 3x_1 - 6x_2 - x_3 = 25 \end{cases}$$

1. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини текшириш.

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 5 \\ 2 & -2 & 6 \\ 3 & -6 & -1 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 2 & 5 \\ 0 & -3 & -2 \\ 0 & -12 & -16 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 2 & 5 \\ 0 & -3 & -2 \\ 0 & 0 & -2 \end{pmatrix} \rightarrow r(A) = 3$$

$$\bar{A} = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 5 & -9 \\ 2 & -2 & 6 & 4 \\ 3 & -6 & -1 & 25 \end{pmatrix} \sim \begin{pmatrix} 1 & 2 & 5 & -9 \\ 0 & -3 & -2 & 11 \\ 0 & -12 & -16 & 52 \end{pmatrix} \sim$$

$$\sim \begin{pmatrix} 1 & 2 & 5 & -9 \\ 0 & -3 & -2 & 11 \\ 0 & 0 & -2 & 2 \end{pmatrix} \rightarrow r(\bar{A}) = 3$$

Асосий матрица ранги кенгайтирилган матрица рангига тенг. Кронекер-Капелли теоремасига кўра система биргаликда; чизиқли тенгламалар системаси ечими ҳақидаги теоремага кўра эса тенглама ягона ечимга эга.

2. Чизиқли тенгламалар системасини ечимини топиш.

$$\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 5x_3 = -9 \\ -3x_2 - 2x_3 = 11 \\ -2x_3 = 2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = -9 - 2x_2 - 5 \\ x_2 = -(11 + 2x_3)/3 \\ x_3 = -1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = 2 \\ x_2 = -3 \\ x_3 = -1 \end{cases}$$

3. Текширув. $2 + 2 \cdot (-3) + 5 \cdot (-1) = -9$

4. Жавоб. $x_1 = 2, \quad x_2 = -3, \quad x_3 = -1.$

Айнан шу мисолни, Крамер ҳамда матрица усуллари ёрдамида ечиш алгоритмини ҳам шу тарзда давом эттириш мумкин.

Кейин чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишни Microsoft Excel дастури ёрдамида ечиш кўрсатиб ўтилади ва олинган назарий ва амалий билимлар (ёзма иш, тест ва б. орқали) назорати амалга оширилади.

Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини Гаусс методи орқали Excel дастурида ечиш учун қуйидаги ишларни амалга ошириш лозим:

$$\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 5x_3 = -9 \\ 2x_1 - 2x_2 + 6x_3 = 4 \\ 3x_1 - 6x_2 - x_3 = 25 \end{cases}$$

Юқорида келтирилган тенгламанинг номаълум ҳадлар олдидаги коэффицентларини A1:C3 ячейкаларга киритамиз. Озод ҳадларни эса D1:D3 ячейкаларга киритамиз. Сўнггра ушбу формулани $\{=(A2:D2-\$A\$1:\$D\$1*(A2/\$A\$1))\}$ A6:D6 ячейкаларга қўямиз. A7:D7 ячейкага эса ушбу формулани қўямиз $\{=(A3:D3-\$A\$1:\$D\$1*(A3/\$A\$1))\}$. Хосил бўлган натижа қуйидаги кўринишда бўлади:

	A	B	C	D	E
1	1	2	5	-9	
2	1	-1	3	2	
3	3	-6	-1	25	
4					
5	1	2	5	-9	
6	0	-3	-2	11	
7	0	-12	-16	52	

1-расм. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини Гаусс методи орқали Excel дастурида ечиш кетма-кетлиги (1-босқич).

Навбатда A5:D5 ва A6:D6 қаторларни аслича A9:D9 ва A10:D10 ячейкаларига қўчириб оламиз. A11:D11 қатор учун эса қуйидаги формулани қўллаймиз $\{=A7:D7-\$A\$6:\$E\$6*(B7/\$B\$6)\}$. Натижани ушбу расмда кўриш мумкин.

	A	B	C	D	E	F
1	1	2	5	-9		
2	1	-1	3	2		
3	3	-6	-1	25		
4						
5	1	2	5	-9		
6	0	-3	-2	11		
7	0	-12	-16	52		
8						
9	1	2	5	-9		
10	0	-3	-2	11		
11		0	-8	8		

2-расм. Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини Гаусс методи орқали Excel дастурида ечиш кетма-кетлиги (2-босқич).

Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини ечишга тизимли ёндашиш талабаларга битта мисолни бир неча усуллар ва ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда ечиш имконини беради. Лекин бу ҳолат талабалардан материални ўзлаштиришда кўпроқ вақт талаб қилади.

Adabiyotlar

4. Ё.У.Соатов. Олий математика. Олий техника ўқув юртлари талабалари учун дарслик (3-жилд). Тошкент «Ўзбекистон» 1996. 633б.

MOODLE PLATFORMASI VA UNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Хо'jayev O.K.

Ushbu maqolada Moodle masofaviy ta'limni boshqarish tizimining tarixi, tarkibiy qismlari va tuzilishi keltrib o'tilgan. Undan tashqari tizim imkoniyatlari va tizimni o'rnatish uchun qo'yilgan talablarga xam batafsil to'xtalib o'tilgan.

В данной статье рассмотрено история управления системы дистанционного обучения Moodle, части структуры и строение. Кроме этого возможности системы и требование к установке системы.

In this article, the history of the management of the Moodle distance learning system, parts of the structure and structure, is considered. Furthermore, the system's capabilities and the requirement to install the system.

Kalit so'zlar: LMS, Moodle, FreeBSD, Linux, VLE, PHP, MySQL

Ключевые слова: LMS, Moodle, FreeBSD, Linux, VLE, PHP, MySQL


Keywords: LMS, Moodle, FreeBSD, Linux, VLE, PHP, MySQL

Masofaviy ta'lim jarayonini ta'lim tizimini boshqaruvchi dasturiy (LMS- Learning Management System) tizimlaridan foydalangan holda tashkil etish mumkin.

Bunday e-learning sistemalarni ko'pincha boshqaruv ta'limoti (Learning Management Systems - LMS) yoki virtual yaratish qurollari (Virtual Learning Environments - VLE) deb ataladi. Moodle-bu nafaqat onlayn-kurslarni tuzish va ishlash balki, uning yordamida o'quv veb saytlari bilan ishlash uchun mo'ljallangan aslaxalar omboridir. Dasturning asosiga sotsial teoriya konstruktsiyasi va ishlataolishni o'rgatish kiradi.

Moodle avtori - Martin Dougiamas. Kursning yakunlashi bilan Computer Science va Education yo'nalishi bo'yicha universitetni yakunida dissertatsiyani tayyorlab yoqlagan (Ph.D.). "The use of Open Source software to support a social constructionist epistemology of teaching and learning within Internet-based communities of reflective inquiry". O'quv jarayonini qo'llab quvvatlash maqsadida informatsion texnologiyalardan foydalanish fikri 1999 yili - Curtin University (Avstraliya) – universitetida WebCT kommertsiyaviy platformasini amaliyotda qo'llagandan so'ng paydo bo'lgan. Moodle tizimining ishlab chiqilishining asosiy maqsadi WebCT i BlackBoard platformasidan tekin foydalanish emas, balki o'qitish jarayonida o'qituvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish.

Moodle tizimi masofali o'quv jarayonida keng qamrovli imkoniyatlar va o'quv jarayonida qo'l keladigan qo'llab to'la to'kis quvvatlash – o'quv materiallarining keng ko'lamda yoritilishi, bilim saviyasini tekshirish va boshqaruvida ishlash imkonini yaratadi. Xozirgi vaqtda Moodle tizimi jaxonning yirik universitetlarida qo'llab kelinmoqda. Moodle tizimida taxminan 2 mln nafar faoliyat olib boruvchilar qayd etilgan, 200-ta davlatda 70-tildagi 46-ming o'quv partallari va 300-nafar programist-ishlab chiqaruvchilar faoliyat olib bormoqda.



1-Rasm. Moodle LMS tizimining strukturasi

Moodle so'zi – so'zlarning obverturasi bo'lib "Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment". Moodle modifikatsiyasiz Unix, Linux, FreeBSD, Windows, Mac OS X, Netware va boshqa PHPni qo'llab quvvatlovchi operativ sistemalarda ishlaydi. Ma'lumotlar MySQL va PostgreSQL ma'lumotlar omborida saqlanadi. Moodle dasturini o'rnatish murakkab emas va bu dasturni o'rnatishda "obnovlenie" va "perexod" talab qilinmaydi. Moodle so'ngi versiyasi SDO Moodle ni mijozlarning umumjaxon birlashmasining <http://www.moodle.org>. Saytidan ko'chirib olish mumkun.

Moodle tizimi masofadan turib o'qitish kurslari va veb-saytlarni yaratishni dasturiy ta'minlash paketidan iboratdir. Tizimning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:-Tizim hozirgi zamon pedagogika yutuqlari va o'quvchilar orasidagi hamkorlikka bo'lgan e'tibor, muhokamani hisobga olingan holda loyihalashtirilgan.-Masofadan turib o'qitish uchun ham, kunduzgi o'qitish uchun ham foydalanish mumkin.-Oddiy va samarali veb-interfeysga ega.-Dizayn modul strukturasiga ega va osongina modifikatsiya qilinadi.-Ulanadigan til paketlari to'liq mahalliyashtirish imkoniyatini beradi.Ayni paytda 43 ta til qo'llab-quvvatlanmoqda.

LMS Moodle imkoniyatlari

Moodle LMS (Learning Management System) sinfi - talimni boshqarish tizimiga mansubdir. Rossiyada bunday dasturiy taminotni masofali talim tizimlari (MTT) deyishadi, chunki ayni mana shunday tizimlar orqali ko'plab o'quv yurtlarida masofali talim tashkil etilgan. **Moodle** – bu GPL litsenziyalik erkin dasturiy taminot bo'lib, tizimdan bepul foydalanish imkonini beradi. Undan shuningdek, ortiqcha qiyinchiliksiz talim muassasasining ehtiyojlariga muvofiq foydalanish va boshqa mahsulotlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. **Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment)**jumlasining qisqarmasi bo'lib, modulli obektga yo'naltirilgan dinamik o'quv muhiti manisini bildiradi. O'zining funktsional imkoniyatlariga ko'ra tizim keng ommalashgan bo'lib, tijorat LMSlari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashmoqda. **Moodle** jahonning 30 mingdan ko'proq o'quv muassasalarida ishlatilib, 80dan ko'proq tillarga tarjima qilingan. **Moodle** to'g'risidagi batafsil malumotlarni loyiha rasmiiy sayti (www.moodle.org)dan olish mumkin.

Moodle axborot-tahlil muhitini loyihalash, yaratish va uni boshqarish imkoniyatlarini beradi. Tizimning interfaysi avvalboshdan dasturlashtirish va malumotlar bazasi, veb-saytlar va boshqalar to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lmagan o'qituvchilarga muljallangan. Tizim qulay bo'lib, intuitiv ravishda tushunilishi mumkin bo'lgan interfaysga ega. O'qituvchi mustaqil ravishda faqatgina malumotlar tizimi yordamida elektron kurs tuzishi va uni boshqarishi mumkin. Jadval, sxema, chizmalar, video, flesh va boshqalarni joylashtirish ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Boshqarishning qulay mexanizmi yordamida kurs tuzuvchisi **HTML** tilini bilmasa ham ranglar va o'quv materialining boshqa elementlarini osongina tanlashi mumkin.

Moodle platformasiga qo'yiladigan talablar

Dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablar: PHP ni qo'llab quvvatlovchi modifikatsiyasiz ixtiyoriy operatsion tizimlar (Unix, Linux, FreeBSD, Windows, Mac OS X, Netware va boshqalar); Ma'lumotlarni saqlash uchun: MySQL va PostgreSQL (eng yaxshi versiyasi).

Apparat ta'minotiga bo'lgan talabi: Pentum 3 va 4 rusumidagi kompyuter (ikki yadroli yoki protsessorli); Qattiq diskda 30 MB bo'sh joy; Shuningdek, 256 MB OZU operativ hotira bo'lishi tavsiya qilinadi.

Adabiyotlar

- 1.V.S.Xamidov, R. Axatova, Organizatsiya distantсионnogo obucheniya v LMS sisteme Moodle.
2. Fan va ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Toshkent, 2010 25-26 mart.

**V ШЎЪБА. БАРКАМОЛ АВЛОДНИ
ТАРБИЯЛАШДА ГУМАНИТАР
ФАНЛАРНИНГ ЎРНИ**

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ РАҲБАРЛИК

Сапарбаев О.Ш., Маткаримова И.А.

*Ушбу мақолада раҳбарнинг асосий сифатлари ўрганилган
В этой статье изучены основные качества руководителя
In this article, the main qualities of the manager*

Калит сўзлар: раҳбар, менежер, етакчилик, фазилат, раҳбар кадрлар, интизом

Ключевые слова: руководитель, менеджер, лидерство, особенность, административный персонал, дисциплина

Key words: head, manager, leadership, feature, administrative staff, discipline

Кириш

Ҳозирги кунга келиб давлат идоралари, бизнес тармоқлари ва ижтимоий соҳаларни бошқариш бўғинларида замон талабига жавоб берадиган бошқарув кадрларини тайёрлаш ва тарбиялаш масаласи энг долзарб вазифалардан биридир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбарни – бу Бош вазир ёки унинг ўринбосарлари бўладими, ҳукумат аъзоси бўладими ёки ҳудудлар ҳокими бўладими, улар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиб қолиши керак деб таъкидлаган эди.[1]

Асосий қисм

Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримов таъкидлаганидек, “эскича бошқариш қолиплари ва усулларида кутила олмаётган раҳбарлардан қатъий воз кечадиган вақт келди. Бугун ҳаётнинг ўзи корхона ва бирлашмаларни бошқаришда замонавий фикрлайдиган, пухта тайёргарликка эга бўлган менежерларга таянишни талаб этмоқда”. [5]

Бозор иқтисодиётига мослашишни тезлаштиришнинг муҳим омилларидан бири- раҳбарнинг меҳнат фаолиятдан тўлиқ ва самарали фойдаланишдир. Табиийки, бугунги бозор муносабатларини шакллантириш жараёнлари меҳнат фаолиятини ошириш, ундан самарали фойдаланиш муаммоларига ҳам ўз таъсирини ўтказади., баъзан уларни мураккаблаштиради ҳам.

Мазкур соҳада яна бир муҳим долзарб масала – бу бошқариш фаолиятида қобилиятли, истеъдодли ва иқтидорли ёшлар билан ишлаш масаласидир. Халқимиз бугун ёшларга ишонмоқда, уларга умид кўзи билан қараяпти. Ёшлар бугун ўтмиш ва келажак ўртасидаги ишончли ва умидли кўприк вазифасини бажариши керак.Шунинг учун раҳбарлик фаолиятига

лаёқати бор ёшларни излаб топиш, улар билан мунтазам ишлаш ва келажак учун тайёрлаш бугуннинг энг долзарб масаласи бўлиб қолмоқда.

Ҳар бир мутахассисларнинг фикрича, ходимнинг салоҳияти раҳбарлик қилиш қобилияти билан бевосита боғлиқ бўлади. Замонавий раҳбарлик қилиш, давлат бошқарув тизимида муҳим роль ўйнайди. Хусусан, ишда тадқиқотнинг статистик, қиёсий таҳлил, абстрактлаштириш, swot таҳлил, монографик, анализ ва синтез усулларидан фойдаланиб, ишдаги мавжуд муаммолар ўрганилди ва уларни ҳал қилиш бўйича муаллиф томонидан умумий хулоса берилди.

Тадқиқот давомида, бошқарув раҳбарларининг замон талабларига жавоб берадиган айрим кучли фазилатларини таҳлил қилдик. Бошқарув кадрлари билан ишлашда қуйидаги масалага катта эътибор қаратиш муҳим аҳамият касб этади. Бугун бошқарув кадрларининг икки тоифаси мавжуд: турли мулк шаклидаги бизнес соҳалари раҳбар (менежер) лари ҳамда давлат идоралари ва ташкилотлари раҳбарлари.

Давлат ташкилоти раҳбарлари давлат ва халқ ўртасида кўприк вазифасини бажаради. Улар давлатнинг ишонган вакиллари ҳисобланиб, жамият манфаатларининг ҳимоячиси сифатида фаолият олиб борадилар. Бизнес соҳалари бошқарув кадрлари эса шахсий, жамоа ва жамият манфаатларининг мутаносиблиги, уйғунлигини таъминлаш бўйича фаолият кўрсатадилар.

Мазкур фаолиятларни муваффақиятли олиб бориш учун бошқарув кадрларидан давлат сиёсати, ислохотларнинг мазмун моҳияти, замонавий бошқарув асослари, бозор иқтисодиёти кўникмаларини чуқур эгаллаб бориш талаб этилади. Бунинг учун бошқарув кадрларида ўз билимлари, малака ва кўникмаларини мунтазам ошириб боришлари учун етарли шарт-шароитлар яратилиши лозим.

Бошқарув фанининг ривожланишига самарали ҳисса қўшган соҳибқирон Амир Темури “Темур тузуклари” асарида “Дона вазир ўз ўрнига қараб, гоҳ қаттиқ қўллик, гоҳида эса мулоимлик билан иш юритади. Бундай вазир ортиқча қаттиқ қўллик ҳам қилмайди, кўп мулоимлик билан юмшаб ҳам кетмайди. Агар кўп мулоимлик қилса дунёталаб, тамагир одамлар, уни ютиб юборадилар. Агар ортиқча қаттиқ қўллик қилса, ундан қочадилар ва унга бошқа мурожат қилмайдилар. Демак, дона вазир шулдирки, салтанат корхонасининг ишларини энг тўғри чораю тадбирлар қўллаб, яхши англаган ҳолда амалга ошириб, давлатни тартиб- интизомга келтиради. Салтанат ишларини сабр-тоқат, чидам билан адо этади. Салтанат муаммоларини ўз ўрнида қаттиқ қўллик, ўз ўрнида мулоимлик билан ҳал қилинади[5]. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг 2016 йил февраль ойида бўлиб ўтган Тошкент вилояти кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқи бугун биз раҳбарлик, етакчилик вазифаси нақадар маъсулиятли эканига, бунга ҳар кимнинг ҳам қурби етмаслигига, бу иш инсондан аввалом бор мустаҳкам ирода ва иймон-этикод талаб қилишига яна бир бор гувоҳ бўлмоқдамиз, шу

Ўринда илгари ҳам айтган бир фикримни такрорлашни зарур деб биламан: раҳбарга лавозимни, обрўни эл-юрт беради, лекин унга ишониб топширилган лавозимни унинг ўзи йўқотади ва шу сингари салбий иллатлар ҳам изоҳлаб берилади[6]. Бу борада мухтарам биринчи Президентимиз таъкидлаганидек, янги раҳбарни сайламоқчи бўлсак, аввало, унинг қайси хусусият ва фазилатларга эътибор бериш кераклиги лозим. Биринчидан, ўзини бошқалар билан тенг олиб гаплашадиган, бошқаларнинг дарду ташвишларини баҳам кўришга тайёр бўлган инсонни ўз номзоди сифатида қабул қилиш керак. Ўзига бино қўйган, манманликка берилган, кеккайиб юрадиган одамдан кўрқиш керак. Бундай одам ҳозирнинг ўзида ўзига шунча бино қўйса, эртага кўпчилик унга ишонч билдириб, лавозимга ўтирганидан кейин аввал кўрсатмаган қилиқларини дарров кўрсатади.

Раҳбарга хос бўлган иккинчи фазилат шуки, ўзини ўйламасдан, авваламбор, ўзига ишонган халқнинг дарду ғамини, унинг тақдири, этранги кунини ўйлаб яшаши лозим. Учинчи фикр шуки, синовдан ўтган одамларни раҳбар қилиб сайлаш зарур. Нега деганда, бу дунёда катта ақл-заковат билан бирга, кўпни кўрган, узоқни кўзлайдиган, иродаси мустаҳкам, керак бўлса, турли-турли мураккаб синовлардан ўтган одамларни биз ўзимизга раҳбар қилиб танлашимиз керак. Узоқни кўра олмайдиган одамнинг раҳбар бўлишига мутлақо ҳаққи йўқ [3].

Юқоридаги келтирилган ижобий ва салбий хислатлардан келиб чиқиб, ҳозирги раҳбар “ўзи ҳам ёниб, ўзгаларни ҳам ёндириб яшаши керак”. Давр одамларни ўзгартиради, одамларни саралайди. Зеро ҳамма ҳам раҳбар бўлиб туғилавермайди. Раҳбарлик илоҳий фазилат, қолаверса, у тинимсиз изланиш, интилиш, билим ва тажрибанинг маҳсулидир. Замонавий раҳбарларга эътибор-Ватан, халқ тақдирига қаратилган эътибордир.

Хулоса

Давлат бошқарув тизимида замонавий раҳбарлик қила олиш қобилиятини кучайтириш учун қуйидаги таклиф ва тавсияларни амалиётда кенг фойдаланиш лозим:

- хорижий чет тиллар ва ахборот технологияси соҳасини мукаммал эгаллаш;
- замонавий раҳбарлик қила олиш бўйича хорижий мамлакатлар тажрибаларини ўзлаштириш;
- мунтазам равишда раҳбарнинг ўз соҳаси бўйича малакасини ошириб бориш;
- корпоратив бошқарув тизими асосида раҳбарлик қилишга эришиш ва ҳақозалар.

Адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган

иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.- 104 б.

2.Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг мамлакатимизни 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.17январь 2014 йил .Халқ сўзи

3.Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг мамлакатимизни 2014 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2015 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.17январь 2015 йил.Халқ сўзи

4.И.А.Каримов. “Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш энг олий саодатдир.Тошкент-“Ўзбекистон”-2015 й

5.Темур тузуклари. В.Ахмедов таҳрири остида. -Т: “Ғ.Ғуламов номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”,1996

6.Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2016 йил февраль ойида бўлиб ўтган Тошкент вилояти кенгашининг навбатдан ташқари сессиясида сўзлаган нутқи. 5 февраль 2016 йил. Халқ сўзи

NATIONAL STATISTICS - THE BASIS OF OPEN DATA

Matkarimova I.A., Sabirov J.S.

The article describes the role of national statistics in the development of the country

Key words: *open data, official statistics, implementation, development, information and communication technologies*

Introduction

In modern conditions, one of the central problems of the economy of Uzbekistan is to ensure sustainable economic growth, which can be achieved through the adoption of strategically correct management decisions. An important basis for this is information generated by state statistics Authorities.

At present, the peculiarities of the formation of qualitative statistical information on the basis of the system of national accounts, the statistical methods of accounting for the shadow economy and the applied statistical tools for the implementation of the calculations for the unaccounted volume of the gross domestic product (GDP) remain insufficiently developed.

The main part

In Uzbekistan, great attention is paid to the introduction and development of information and communication technologies in all spheres of the national economy in the activities of state authorities. At present, the problem of economic and statistical research of statistical information as a separate product of the system of state statistics is a very high priority, which is constantly reflected in the adopted legislative acts. [6]

According to Article 4 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On State Statistics", adopted in December 2002, one of the fundamental principles of state statistics is accessibility, transparency and openness. Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan of 8 January 2003 No. 8

"On the authorities of activities of the State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics" established "Goskomstat distributes and provides equal access for all users to open statistical information."

At the same time, there is no clear definition of what information is considered "open" and which is "closed". To eliminate this uncertainty, it is necessary to introduce such elements of openness as the definition of the list of "open" information, information with limited access, as well as a list of information, especially in demand by the society based on the experience of South Korea. [2]

The South Korea Open Data Portal is a vivid confirmation of the fact that the most requested sets of open data on the number of downloads are statistical information on traffic accidents and in the fields of primary, secondary and higher education.

An analysis of foreign practice confirms that the main provider of open data is statistical services. Thus, in France, Singapore and the Netherlands, the volume of sets published by the statistical services on national open data portals is an impressive proportion of the total number. [2]

Nowadays, the main channel for disseminating Goskomstat statistical information is printed publications - as well as statistical bulletins issued according to the annual Statistical Work Program.

Statistical compendiums publish the main indicators characterizing the social-economic situation of the republic.

For example, the collection "Uzbekistan in Figures" presents data reflecting demographic processes, problems of employment and unemployment, education and culture, health care, development of the consumer goods and services market. It provides information on the development of new forms of management, production and use of GDP, and external economic activity. In the GDP production section, separate indicators of the system of national accounts are also published.

In Uzbekistan, work on open data began relatively recently in the framework of work to create conditions for providing access to public information about state authorities and their activities in accordance with the law on "Openness of the activities of public authorities and administration." Despite this, several significant results have been achieved since December 2014. In March, the Open Data Portal (data.gov.uz) was created, on which public data sets of public authorities are

published centrally. An important step was the adoption of the Resolution of the Cabinet of Ministers of August 7, 2015, No.232 "On measures to further improve the activities of the government portal of the Republic of Uzbekistan on the Internet, taking into account the provision of public government data," which approved the Statute on the State Open Data Portal. Decree of the Head of State of November 18, 2015 on the adoption of the law of the Republic of Uzbekistan "On Electronic Government".[4].

Open public data serve the interests of different categories of users. However, there are such categories of information collected within the framework of national statistical systems that are of interest to almost all citizens. Such data, in particular, are the data of the population census system of national accounts, labor, financial and banking system, statistics of foreign trade, education and health, poverty and inequality, offenses, and so on.

Conclusion

In conclusion, it can be said that open data is relatively new in Uzbekistan and it takes time to implement them in the work of all state organizations. However, now it is necessary to think about what characteristics existing in the statistical system in Uzbekistan in the future may be a barrier to the transformation of the final statistics into an open data format.

List of literatures.

1. Иванова, Е.Забелин В, Божков В. Особенности построения статистических информационных систем в государствах рыночной экономикой// Вопросы статистики. №8.-1998
2. Центр развития системы «Электронное правительство» 2016.04.07
3. Закон Республики Узбекистан « Об электронным правительстве», принят Законодательной палатой 18 ноября 2015 года
4. Роль открытых данных в развитии электронного правительства Узбекистана. (Аналитическая записка).Сентябрь 2015 г.
5. www.lex.uz
6. www.stat.uz

ЛИДЕРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ БОШҚАРУВДА ТУТГАН ЎРНИ

Маткаримова И.А., Худайбергенов Д.Т., Абдуллаев Ф.О.

*Ушбу мақолада лидерлик ва раҳбарнинг асосий сифатлари ўрганилган
В этой статье изучены основные качества лидера и руководителя
This article explores the main qualities of the leader and manager.*

Калит сўзлар: лидерлик, раҳбар, корпоратив, интизом, бошқарув

Ключевые слова: лидерство, руководитель, корпоратив, дисциплина, управление

Key words: *leadership, leader, corporate, discipline, management*

Кириш

Замон талабларига жавоб берадиган фидойи, изланувчан, янгиликка интилувчан, ташаббускор, касбий билимларга эга бошқарув кадрларини тайёрлаш ва уларнинг захирасини шакллантириш бугунги куннинг долзарб масалаларидандир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбарни – бу Бош вазир ёки унинг ўринбосарлари бўладими, ҳукумат аъзоси бўладими ёки ҳудудлар ҳокими бўладими, улар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиб қолиши керак деб таъкидлаган эди.[1]

Асосий қисм

Ҳозирги кунда мамлакатимизда таълим соҳасини бошқаришнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ўзига хос ўрин эгалламоқда ва таълим жараёнини самарали бошқариш орқали иқтисодий самарадорликка эришиш мумкин бўлади. Чунки, бундай жараёнлар тўпланган жаҳон тажрибаларини ўрганиш ва эришган ютуқларни республикаимиз таълим тизими жараёнига тадбиқ этиш лозимлигини кўрсатади.

Таълим соҳасини бошқарувчи раҳбарлар ўз соҳасини яхши биладиган ва кўп йиллик тажрибага эга мутахассислар бўладилар. Жумладан, лидерликка эга бўлган раҳбарларда миқдор ва сифат жиҳатидан муқаррар илгарилаб борадиган ўзгариш, янги мақсадлар, вазифалар, касб-малака ва коммуникация мезонлари, ўзаро алоқалар, бошқарув субъекти ва усуллариининг янги жараёни акс этади.

Аввало, бир неча кишилар гуруҳи ва жамоасининг ҳаётидаги асосий ижтимоий ҳолатлардан бири лидерлик ҳисобланади. Баъзи мутахассислар фикрича, лидерлик бошқаларга ҳукмронлик эмас, балки ишонтириш тизими саналади. Аслида ўзининг қарорларини бошқа кишилар устидан ҳукмронлик қилиб, уни бажаришни талаб қиладиган инсон лидер ҳисобланмайди. Бироқ, лидер бошқаларни уларнинг шахсий қизиқишларидан вақтинчалик воз кечган ҳолда жамоанинг эркинлиги ва фойдаси учун муҳим бўлган умумий мақсадга эришиш билан шуғулланишга тўла ишонтира олади.

Шунингдек, лидерлик бошқаларга ҳам таъсир этиш воситаси ҳам саналиб, бу ерда бошқа кишиларга таъсир ўтказаётган ҳар қандай инсон лидер бўла олиши ва жамоа аъзолар лидерлик потенциалига эга бўлиши мумкин. Аммо, кишининг лидер сифатида тан олиниши учун бошқаларга шунчаки таъсир ўтказиш билан бирга, ўзидаги маълум бир хусусиятлар орқали уларда ўзига нисбатан ишонч туғдира олиши керак. Яъни, бу ерда лидерлик – бу бошқа кишиларга таъсир этиш, умумий мақсад йўлида сафарбар қилиш ва ўзаро жипслаштириш қобилияти бўлиб, “Лидер” сўзи

инглизча “Leader” сўзидан келиб чиққан бўлиб, “етакловчи” деган маънони англатади. [3]

Таълим тизимида лидерлик “етакчилик қилиш” сифатида раҳбар ва ходимлар ўртасидаги ўзига хос муносабат бўлиб, бунда маълум вазиятдаги турли хил бошқарув шаклларига асосланган ҳолда ходимларни муассаса мақсадига йўналтира олиш имконияти алоҳида ҳисобга олинади.

Ҳамда лидерликнинг муҳим шарт-шароити асосида муассасада бошқарувга эга бўлиш қонунчилик билан мустаҳкамланиши лозим. Баъзи ҳолларда бу ҳолат кучли билим ва имконият билан ўлчанади. Ҳамда лидер муассасада ижтимоий, психологик ва эмоционал пойдеворга ҳам эга бўлиши лозим.

Лидерлик турлари ичида расмий лидер мавжуд бўлиб, бу қўл остидаги педагог-ходимларга эгаллаб турган лавозим нуқтаи назаридан таъсир этиш саналади. Норасмий лидер педагог-ходимларга таъсир этиш, унинг эгаллаб турган лавозими нуқтаи назаридан эмас, бошқа ходимнинг шахсий қобилияти, билими, малакаси ва бошқа имкониятлари орқали амалга оширилади.

Таълим тизимида етакчилик, лидерлик ва раҳбарлик каби ўзаро боғлиқ тушунчалар бир-биридан фаолиятига кўра фарқланиб, улар орқали киши ўз ҳаёти давомида юқори поғона, яъни раҳбарликка интилади.

Аввало, ҳозирги кунда глобаллашув жараёни натижасида лидерлик “ҳокимиятни эгаллаш мақсадида фойдаланиш” деб ҳам қаралади. Аммо, бунда кўплаб норасмий лидерлар томонидан “қўзғолонлар” уюштирилиши ва бўйсунмаслик ҳолатлари кузатилади. [5]

Лидер муҳим вазиятларда маъсулиятли қарор қарор қабул қилиш ҳуқуқига эга деб топилган гуруҳ аъзоси, кўпроқ авторитетга эга бўлган шахс, биргаликдаги фаолиятни ташкил этишда реал марказий ўринни эгалловчи ва гуруҳдаги ўзаро муносабатларни бошқарувчидир.

Бошқарувдаги лидерлик услублари раҳбарлик услубларидан кескин фарқ қилади. Раҳбарлик услуби педагог-ходимларга таъсир ўтказишда раҳбар томонидан қўлланиладиган усуллар тўплами ва ушбу усуллар ижросининг шаклини ифода этади.

Лидерлик демократик услубда қўлланилади. Чунки, бунда таълим муассасаси раҳбарининг шахсий фикри муҳокама қилинмайди, балки муаммонинг муҳокама қилиш нуқтаси ва оптимал ечимини ишлаб чиқиш учун барчанинг фикри энг муҳим омил ҳисобланади. Бироқ, таълим соҳасида лидерликка эга бўлган раҳбарлар танланган йўналиши бўйича қуйидаги жиҳатларга эга бўлишлари керак:

а) интеллектуал қобилияти бўйича: зеҳни, абстракт фикрлаш қобилияти, менежернинг ҳаракатларига муносабати, фикрлаш даражаси, музокара олиб бориш қобилияти.

б) сўзлашиш услуби бўйича: топқирлик, кўп сўзлилиқ, ўз фикрини аниқ баён этиши, сўзлашиш маданияти.

Шу билан бирга, таълим тизимида энг юксак лидерлик жихатига эга бўлган замонавий раҳбарга мезонлар бўйича қуйидаги талаблар қўйилади:

- билим ва қобилият;
- шахсий сифатлар;
- этик-одоб ва ахлоқ меъёрлари;
- шахсий ресурслар;
- самарали бошқарувдаги қобилият ва билимлар;
- ривожланишдаги чегаралар.

Хулоса

Умуман олганда, таълим соҳасида бошқарувда лидерликка асосланган самарали раҳбарлик менежмент самарадорлигини оширишга олиб келади, яъни тармоқда ҳар бир ташкилий-хўжалик бўғинининг муваффақиятли фаолияти ва ривожланишини таъминловчи бошқарув шаклланади. Ҳамда таълим соҳасида бошқарув жараёнларини унумли ташкил қилиш, шахслараро ўзаро муносабатларини ташкил этиш, баркамол авлодни камолга тарбиялашга лидерлик орқали эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган маждлисидagi маъруза, 2017 йил 14 январь.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.- 104 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Хусусийлаштирилган корхоналарни корпоратив бошқаришни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Халқ сўзи. 2003 йил 22 апрель, №85 (3197).

3. Зайнутдинов Ш.Н. ва бошқалар. Менежмент асослари. - Т.: Молия, 2001.

4. Stephen Robbins, Stephen P. Coulter, Mary. Management / 6 th ed. Australia Group Pty Ltd., 2012.

5. Квартальнов. В.А. Стратегический менеджмент в туризме: современный опыт управления. – М.: Финансы и статистика, 1999 г. - 496 с.

БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШДА АХБОРОТ– КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИНИНГ АҲАМИЯТИ

Д.Т.Худайбергенов, И.А.Маткаримова, С.Ибрагимов

Ушбу мақолада раҳбарнинг бошқарув қарорларини қабул қилишда ахборот-коммуникация тизимидан фойдаланиши ҳақида маълумотлар келтирилган

В этой статье перечислены сведения о принятия решений руководителя об использовании информационно-коммуникационной системы

This article lists information on the decision of the head on the use of the information and communication system

Калим сўзлар: ахборот, қарор қабул қилиш, ахборот-коммуникация технологиялари, бошқарув

Ключевые слова: информация, принятия решений, информационные и коммуникационные технологии, управление

Key words: information, decision making, information and communication technologies, management

Кириш

Бошқарув – бу қарор қабул қилиш, уни рўёбга чиқариш ва натижа учун жавобгарлик ҳисобланади. Ҳар бир ходим нафақат ўз масъулияти доирасида ваколатларидан фойдаланиш фойдаланмаслик учун, балки ўз қарорларини бажарилиши учун шахсий жавобгарликка эга бўлади.

Бозор иқтисодиёти шароитида раҳбар қабул қиладиган қарорнинг аҳамияти ортиб бормокда. Шундай экан, хўжалик субъектларида бошқарув қарорларини қабул қилишга аввало, ахборот-коммуникация тизимлари кенг таъсир қилади. Бошқариш жараёнида бошқарув қарорларини қабул қилиш мақсадида ахборот тўплаш, узатиш ва қайта ишлаш, бошқарув буйруқлари кўринишида ахборот бериш ва уни ижрочиларга етказиш амалга оширилади. [1]

Асосий қисм

Бугунги кунда бошқарув жараёнларида бошқарув қарорларини қабул қилишда ахборот-коммуникация тизимларидан самарали фойдаланилганлиги боис, республикамиздаги 150 дан ортиқ корхона ва ташкилотларда халқаро стандартларга мувофиқ, сифатни бошқариш “Кайдзен” тизими жорий қилинди. Бу эса иқтисодий, илмий-техникавий ва ижтимоий тараққиётни рағбатлантириш ва аҳоли манфаатларини уйғунлаштиришга хизмат қилади. Шунинг учун ҳам, барча бошқарувнинг узлуксиз ишлаши ахборот-коммуникациялари ёрдамида бажарилади. Дарвоқе, бошқарувда қарорларнинг самарадорлигини оширишда ахборот ва коммуникацион технологияларнинг кенг қўлланилиши тадбиқ қилинди. Уларнинг жумласига, компьютер жиҳозлари ва мультимедиа воситаларини киритиш мумкин.

Шу билан бирга, ахборот-коммуникацион тизимларни шакллантиришга қаратилган қарорларни қабул қилишда бошқарув жараёни корхона ва ташкилотлар олдида қўйилган масалага эришиш учун раҳбар ва ходимларнинг келишилган ҳолда ҳамоҳанг фаолият кўрсатиши ҳисобланиб, бу жамият ривожланишининг объектив қонунлари талабларини ҳисобга олган ҳолда аниқ мақсадга йўналтирилган ҳаракатлар таъминларини ишлаб чиқишдан иборат бўлади. [2]

Бизнинг фикримизча, корхона раҳбарининг қабул қиладиган битта қарори шу корхонанинг келажақдаги иш фаолиятига таъсир қилмасдан қолмайди. Шу боис, раҳбар ахборот коммуникация тизимларидан фойдаланган ҳолда, қуйидаги омилларни инобатга олиб қарор қабул қилса, корхонанинг ривожланиши янада барқарор даражада бўлади, деб ўйлаймиз:

-қарор қабул қилиш жараёнида ҳар бир давлат ташкилоти ўзининг электрон ёки ахборот тизимига эга бўлиши;

-қарор қабул қилишда ташкилотларни реал вақт - Онлайн тизимига улаш, давлат сектори ва фуқаролар уртасидаги ягона электрон восита билан таъминлаш;

-самарали қарорларни ишлаб чиқиш учун ахборот коммуникация тизимлари қўламини кенгайтириш.

Хулоса

Юқоридагилардан келиб чиқиб, бошқарув қарорларини қабул қилишда ахборот-коммуникация тизимлари юқори раҳбариятнинг интилувчанлигини ошириш, фаолиятни ўзаро ҳамкорлик асосида бошқарилишини ташкил қилиш, бошқарув жамоасининг аъзоларини кенг жалб қилиш, жамоанинг қатнашилишини тўла таъминлаш, аъзоларнинг шахсий иштирокини таъминлаш, тизимлар ва жараёнларни такомиллаштириш, таъминотчиларни кенг жалб қилиш, бошқарув тизимларининг сифатли фаолият юритишини таъминлаш, тактика ва стратегия ишлаб чиқиш, рағбатлантириш тизимини яратиш каби чора-тадбирларнинг амалга оширилишини таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ж.М.Жалилов. Корхонани ташкил қилиш таъминлари. “Корхонани бошқариш” журнали, 2010, №8, - 29 б.
2. Г.Хожахмедов.ва б. Сифат менежменти. – Т.: Чўлпон, 2012. – 25 б.
3. Ф.М.Матмуродов, Р.И.Гимуш. Корхона менежменти. Ўқув қўлланма. ТАҚИ, 2004. - 83 б.

ХАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ- ТАРИХИЙ ХУЖЖАТ

Сапарбаев О.Ш.

Ушбу мақолада 2017-2021 йиллар учун Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси ҳақида маълумотлар ўрганилган

В этой статье изучены сведения о стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на период 2017-2021 годов

In this article, a summary of the strategy for further development of the Republic of Uzbekistan for the period 2017-2021

Калит сўзлар: фармон, стратегия, лойиҳа, суд-ҳуқуқ тизими

Ключевые слова: указ, стратегия, проект, система судебного права

Key words: Decree, strategy, project, judicial system

Кириш

Дарҳақиқат, ҳаракатлар стратегияси бу тарихий ҳужжат бўлиб, эртанги тақдиримизни белгилайди ва ҳаммамиз бу ишга маъсул ҳисобланамиз.

Ҳаракатлар стратегиясига Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан сайлоаволди жараёни, жамоатчилик, ишбилармон доиралар вакиллари ҳамда давлат органлари билан учрашувлар чоғида билдирилган мамлакатни ижтимоий- сиёсий, социал-иқтисодий, маданий-гуманитар ривожлантиришнинг концептуал масалалари киритилди.

Ҳаракатлар стратегиясининг мақсади олиб борилаётган ислохотлар самарадорлигини тубдан оширишдан, давлат ва жамиятнинг ҳар тамонлама ва жадал ривожланишини таъминлаш учун шарт-шароитлар яратишдан, мамлакатни модернизациялаш ва ҳаётнинг барча соҳаларини эркинлаштиришдан иборатдир.[1]

Асосий қисм

Мамлакатимиз раҳбари, Шавкат Мирзиёев 2017 йил 7 февральдаги ПФ-4947-сонли фармони 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси “Халқ билан мулоқат ва инсон манфаатлари” йилида амалга оширишга оид Давлат дастури тасдиқланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони лойиҳаси ишлаб чиқиш арафасида аҳолининг кенг қатламлари, жамоатчилик ва ишбилармон доиралар вакиллари, давлат органларининг раҳбарлари ва мутаххассислари билан амалий суҳбат ҳамда муҳокамалар олиб борилди, шунингдек амалдаги қонун ҳужжатлари, миллий ва халқаро ташкилотларнинг ахборот таҳлилий материаллари, маърузалари, тавсиялари ва шарҳлари ўрганилди, ривожланган хорижий мамлакатлар

тажрибаси таҳлил қилиниб, келиб тушган таклиф жамланиб чуқур ўрганиш ҳамда умулаштириш асосида бу лойиха ишлаб чиқилди.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг 5 та устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси ўз ичига:

1. Давлат ва жамият қурилишини такомиллаштириш.

Дарҳақиқат, Президентимиз Ш.Мирзиёев Давлат ҳокимлик вакиллари —энди халққа хизмат қилади, деб таъкидлаб ўтдилар, ўзинг 19 октябрь 2016 йилги Тошкентда бўлиб ўтган сайлов олди дастурларида. [2]

2017 йил 1 февральдан бошлаб Олий мажлис қонунчилик палатаси депутатлари ва сенат аъзолари аҳолининг аҳолини ўргандилар, аҳолини турмуш тарзини кўздан кечириш мақсадида уйларига ташриф буюришди ва уларнинг аҳолини яхшилаш учун нима қилиш керак деб, ечи топиб келишяпти.

2. Қонун устуворлигини таъминлаш ва суд ҳуқуқ тизимини янада ислох қилиш.

Дарҳақиқат, бу устувор йўналиш инсон ҳуқуқлари манфаатларига қаратилган бўлиб, у ўз ичига қонун устуворлигини таъминлаш —энг аввало ҳуқуқ тарғибот органлари, судьяларни сайлаш, суд ёрдамчи штати, судга ишончни орттириш, аҳолининг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, фуқораларнинг мурожатларини синчиклаб ўрганиш ва ҳакозалар.

3. Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва либераллаштириш.

Дарҳақиқат, бу устувор йўналиш ўз ичига миллий валютани қадрини ошириш, ўзимизда ишлаб чиқилган маҳсулот рақобатбардошлигини ошириш, инвестиция йўналиши, текстиль , минерал хомашёлар, тадбиркорлик соҳасида эркинлик бериш, пластик карталар, хонордонларга кредит ажратиш, коллеж битирувчиларига кредит бериш ва ҳакозалар.

4. Ижтимоий соҳани ривожлантиришга эътибор берилган.

Дарҳақиқат, бу устувор йўналиш ўз ичига таълим, тиббиёт, маданият, одамларни арзон уй- жой билан таъминлаш, қурилиш, қишлоқ хўжалигини ислох қилиш, йўл-транспорт, ёшларга оид сиёсат, аёллар ролини ошириш ва ҳакозалар.

5. Хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш, чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритиш деб номланади.

Дарҳақиқат, бу устувор йўналиш ўз ичига мамлакатимиз ривожланиши учун ташқи муҳит билан аълоқа ўрнатиш, ташқи сиёсатни, ташқи иқтисодиётни мустаҳкамлаш,қўшни давлатлар билан аълоқаларни мустаҳкамлаш, диний бағрикенгликни мустаҳкамлаш, хориж билан савдо иқтисодий аълоқаларни мустаҳкамлаш ва бошқалар.

2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш нинг бешта устувор йўналиш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларга мувофиқ ҳудудлар иқтисодиётини модернизация ва диверсификация қилиш, халқимизнинг турмуш даражаси ва даромадларини ошириш учун ҳар бир ҳудуднинг табиий, минерал хом-ашё, саноат, қишлоқ

хўжалиги, туристик ва меҳнат салоҳиятидан самарали фойдаланишга қаратилган изчил ишлар амалга оширилмоқда.

Хулоса

Хулоса қилиб айтганда, Харакатлар стратегиясини ўз вақтида ва самарали амалга ошириш барча давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари ҳамда уларнинг мансабдор шахслари фаолиятининг бирламчи вазифаси ва бош устувор йўналиши ҳисобланади.

Адабиётлар рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги фармони. Тошкент, “Адолат” 2017 йил.

2.2016 йил 19 октябрдагиТошкентда бўлиб ўтган Ўзбекистон Либерал демократик партиясининг 8 сессиясида Ўзбекистон Республикаси Президентлигига Республика Президенти вазифасини бажарувчиМирзиёев Шавкат Миромоновичнинг сайловолди дастурининг асосий йўналишлари ҳақидаги маърузаси.2016 йил 19 октябрь

3.Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган маждлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.- 104 б.

WHAT IF STUDENTS ARE ALL AT DIFFERENT LEVELS?

Махмудова О.О.

The article is focused on teaching a diversely prepared classroom, which may at first seem intimidating; it does not have to be an insurmountable task. Every experienced teacher make sure that your classroom policies are helpful to all students, and be prepared to provide extra materials, but most of all, be approachable to help students of all backgrounds find and make use of the material they really need.

Статья посвящена обучению разносторонне подготовленной аудитории, которая может показаться сначала пугающей; Это не должно быть непреодолимой задачей. Каждый опытный преподаватель должен убедиться, что ваши правила в классе полезны для всех учащихся, и будьте готовы предоставить дополнительные материалы, но, прежде всего, быть доступными, чтобы помочь учащимся из всех слоев общества найти и использовать материал, который им действительно нужен.

Key words: *mixed-ability groups, planning lectures, incorporating variety, providing extra resources, use different materials/technology, role-plays, group activities.*

Ключевые слова: *Группы смешанных возможностей, планирование лекций, включение разнообразия, предоставление дополнительных ресурсов, использование различных материалов / технологий, ролевые игры, групповые мероприятия.*

One of the biggest problems teachers face is classes where the students are at different level: some with quite competent English, some whose English isn't very good, and some whose English is only just getting started. Even if things are not quite so extreme, teachers of English - along with teachers of other curriculum subjects - regularly face **mixed-ability groups** where different individuals are at different levels and have different abilities. What then are the possible ways of dealing with the situation?

Know Your Students

It is not possible to address various student needs until you know what those needs are. Beyond just knowing students' names, in a diversely prepared classroom, it becomes even more imperative to solicit frequent student feedback beginning with the first day of class.

There are several ways to accomplish this:

- Talk to other instructors who are teaching your course or have taught prerequisite courses. Build on their knowledge of the students and their techniques to supplement your own teaching strategies.
- Solicit feedback during class by encouraging student responses and class discussion.
- Give regular assignments that require students to demonstrate understanding, not just repetition.
- Give a pretest. This test, given before material is covered may help to set a baseline for what students know and understand, and can help you tailor future class sessions to meet student needs.
- Administer attendance quizzes. Attendance quizzes are given for 5 minutes at the end of a lecture and do not affect student grades. They serve as a day-to-day litmus test of how successfully students have learned that day's material. Allow students to use their notes. You may ask them to list key concepts from that day's class and define them in their own words, or to summarize that day's assigned reading. In math and science classes, you may ask students to solve a problem representative of what was done in lecture. After an attendance quiz, sort solutions by common mistakes, and address those mistakes by email.

While none of these ideas will work perfectly in every class, you may experiment until you find which feedback techniques work best in your particular setting.

Planning Lectures

After you know the needs of your students, you face a new question: for what level students do you plan the lecture? If you change between easier and more challenging material frequently, you run the risk of confusing your students if they do not recognize that transition between different levels of material. Focusing, however, on just one level of students can alienate parts of the class as well. If a class is tailored to leave absolutely no student behind, students with more advanced preparation will quickly become bored. If a class is tailored to meet the needs of the most advanced students, much of the class will not have the background to understand the lecture and may become frustrated. Therefore, many experienced instructors recommend leading a class so that it is aimed to the middle of classroom preparation. This way, as much of the class as possible understands what is going on. Even for students who have weaker backgrounds in your subject, according to Barbara Gross Davis in *Tools for Teaching* (p.55-59), “Students tend to learn more when a course is conducted just above the level at which they are functioning.” In the rest of this article, we will discuss additional ways to continue to level the playing field even when lecture is addressed at a level that is easier for some students and more challenging for others.

Incorporating Variety

Using a wide range of teaching and assessment techniques can have many benefits for a diversely prepared classroom. It may help you to reach a greater cross section of students, and increase the interest level of the class. Further, it may encourage students with their strengths and help them improve on weaknesses.

Providing Extra Resources

No matter what level class is conducted at, at least initially you will have multiple levels of student background to address. Providing the extra resources needed to address students’ needs outside the classroom is important as well.

A first easy step is to be aware of tutoring and learning centers that can assist your students. When students ask for help, having this material readily available from the beginning will enable them to quickly get the help that they need.

Use different materials/technology

When teachers know who the good and less good students are, they can form different groups. While one group is working on a piece of language study (e.g. the past continuous), the other group might be reading a story or doing Internet-based research. Later, while the better group or groups are discussing a topic, the weaker group or groups might be doing a parallel writing exercise, or sitting round a CD player listening to an audio track. This is an example of **differentiation** - in other words, treating some students differently from others. In schools where there are self-study facilities (a study centre or separate rooms), the teacher can send one group of students off to work there in order to concentrate on another. Provided the self-study task is purposeful, the students who go out of the classroom will not feel cheated.

If the self-study area is big enough, of course, it is an ideal place for different-level learning. While one group is working on a grammar activity in one corner, two other

students can be watching a DVD; another group again can be consulting an encyclopedia while a different set of students is working at a computer screen.

Do different tasks with the same material/technology

Where teachers use the same material with the whole class, differentiation can still take place. We can encourage students to do different tasks depending on their abilities. Reading text can have sets of questions at three different levels, for example. The teacher tells the students to see how far they can get: the better ones will quickly finish the first two sets and have to work hard on the third. The weakest students may not get past the first set. In a language study exercise, the teacher can ask for simple repetition from some students, but ask others to use the new language in more complex sentences. If the teacher is getting students to give answers or opinions, she can make it clear that one word will do for some students whereas longer and more complex contributions are expected from others. In role-plays and other speaking or group activities, she can ensure that students have roles or functions which are appropriate to their level.

Use the students

Some teachers adopt a strategy of peer help and teaching so that better students can help weaker ones. They can work with them in pairs or groups, explaining things or providing good models of language performance in speaking and writing. Thus, when teachers put students in groups, they can ensure that weak and strong students are put together.

